

جدید

2025-yil 9-may
№ 19(71)

www.jadid.uz



Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz



9
MAY

XOTIRA VA
QADRLASH
KUNI

XALQIMIZNING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI CHINAKAM MARDLIK VA QAHRAMONLIK SOLNOMASIDIR



Ikkinchi jahon urushining tugaganiga 80 yil bo'ldi. Shuncha vaqt o'tsa-da, uning tarixi, kulfat va musibatlari unutilmaydi. Aksincha, urushning mudhish oqibatlarini tinchlik-osoyishtalik qadrlari yodga soladi. 9-may – Xotira va qadrlash kuni zahirida ana shunday mohiyat mujassam. Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu sana munosabati bilan G'alaba bog'iga tashrif buyurib, xotira marosimida ishtirok etdi.

So'nggi yillarda shakllangan an'anaga muvofiq, davlatimiz rahbari "Matonat madhiyasi" yodgorligi poyiga gulchambar qo'ydi.

Hujjatlarning dalolat berishicha, fashizmga qarshi qonli janglarda o'sha paytda 6 million 800 ming nafarni tashkil etgan aholimizning qariyb 2 million nafari ishtirok et-

gan. Shundan 540 mingga yaqini halok bo'lgan, 158 ming nafari bedarak yo'qolgan, 50 mingdan ortig'i konslagerlarda mislsiz qiynoq va azoblar tufayli halok bo'lgan, 600 mingdan ziyodi nogiron bo'lib qaytgan.

O'zbekistonlik askar va ofitserlardan 214 mingga yaqini jangovar orden va medallar bilan mukofotlangani ularning jasoratidan dalolat beradi.

Mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam ta'minot bazasiga aylangan, jang maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', kiyim va oziq-ovqatlar yetkazib turilgan. G'oyat og'ir sharoitga qaramay, xalqimiz urush hududlaridan ko'chirib kelingan 1 million 500 mingga yaqin insonni, jumladan, ota-onasidan judo bo'lgan 250 ming nafar yetim bolani o'z

bag'riga olib, mehr ko'rsatgan.

– Bular chinakam mardlik va qahramonlik solnomasidir. Bunday murakkab va shonli g'alabaga munosib hissa qo'shgan matonatli xalqimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bu qahramonliklarni hech qachon unutmasligimiz, yoshlarimizga yetkazishimiz kerak. Ayniqsa, hozirgi tahlikali zamonda buning ahamiyati nihoyatda katta. Hammamiz vatan himoyasiga har kuni tayyor bo'lishimiz kerak, – dedi Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19-fevraldagi qaroriga muvofiq, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuni munosib nishonlanmoqda. Ayni vaqtda hayot bo'lgan mehnat faxriylari va keksalarga ehtirom ko'rsatilmoqda.

Tadbirda O'zbekiston Qurolli Kuchlari, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, mahalla faollari va nuroniylar ham ishtirok etib, mazkur yodgorlik poyiga gullar qo'yishdi.

Davlatimiz rahbari bog'da o'rnatilgan "Xotira nuri" kompozitsiyasini ham ko'zdan kechirdi. Monument parvoz qilayotgan ikki qush shaklida bo'lib, katta va yosh avlodlar o'rtasidagi vorisiylikni ifodalaydi.

Asar tarixiy meros va zamonaviy san'atni o'zida mujassam etgan. Unga QR-havola o'rnatilgan bo'lib, tashrif buyuruvchilar majmua va urush qahramonlari haqida o'qishi, "Xotira nuri" kitobini yuklab olishi mumkin.

O'ZA



INSON ULUG' – XOTIRA MUQADDAS!

1945-yil 9-may. Insoniyat tarixidagi muhim sana. 1939-yil 1-sentyabr kuni dunyoga hukmronlik qilish da'vosini ilgari surgan, insoniyatni dahshatga, qirg'in va ofatlarga giriftor qilgan fashizm g'oyasi asosida boshlangan Ikkinchi jahon urushi mislsiz azob-uqubatlar, son-sanoqsiz qurbonlarga sabab bo'ldi.

Olti yil davom etgan dahshatli urush o'sha vaqtda jahonda mavjud bo'lgan 73 ta davlatning 62 tasini, Yer kurrasining 80 foiz aholisini o'z domiga tortdi. Harbiy harakatlar Yevropa, Osiyo va Afrikadagi 40 dan ziyod davlatlar hududida olib borildi. Qurolli kuchlarga safarbar etilgan 110 million kishidan umumiy yo'qotish 70 millionni tashkil etdi.

Bu urush yadro quroli qo'llanilgan eng mudhish voqea sifatida ham

tarix sahifalariga muhrlandi. Harbiy xarajatlari va harbiy zarar o'sha vaqtdagi hisob bo'yicha 4 trillion dollarni tashkil etdi. Moddiy xarajatlari urushayotgan davlatlar milliy daromadining 70 foizigacha yetdi. Misli ko'rilmagan buzg'unchilik avj olgan urushda o'n minglab shahar va qishloqlar vayron qilindi.

Garchi, harbiy xizmatni o'tayotgan o'zbekistonliklar 1939-yilning o'zidayoq jangovar harakatlarga jalb qilingan bo'lsa-da, fuqarolar ommaviy tarzda 1941-yildan urushga safarbar etildi.

O'sha davrda O'zbekiston hududida yashagan olti yarim million aholidan ikki millionga yaqini urushda ishtirok etdi. Ularning yarim milliondan ko'pi halok bo'ldi. 158 mingdan ortiq yurtdoshimiz bedarak yo'qoldi. Olti yuz mingdan ortiq vatandoshimiz urushdan nogiron bo'lib qaytdi.

Bu ma'lumotlar har uch o'zbekistonlikdan biri qo'lga qurol olib, fashizmga qarshi kurashgani, yurti va umuminsoniyat uchun tinchlik o'rnatilishiga hissa qo'shganidan dalolat beradi.

Agar o'z uyiga, Vataniga qaytmagan har bir askar ortida 5–7 nafar oila a'zolari borligi, qanchadan qancha ayollar beva, bolalar yetim qolganini hisobga olsak, bu raqamlarda aks etgan fojialar ko'lami yanada kengroq namoyon bo'ladi.

Urush davrida yuz minglab o'zbekistonlik askar va ofitserlar ko'rsatgan qahramonliklari uchun jangovar orden va medallar bilan taqdirlandi. Xususan, 301 nafar vatandoshimiz Sovet Ittifoqi Qahramoni, 70 nafar yurtdoshimiz uchala darajadagi Slava ordeni bilan mukofotlandi.

(Davomi 2-sahifada.) ➤

Joriy yilda 9-may – Xotira va qadrlash kuni mamlakatimizda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi e'lon qilgan "2025-yil – Xalqaro tinchlik va ishonch yili", shuningdek, Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi tadbirlari bilan uyg'un hamda hamohang nishonlanmoqda. Muhimi, bundan ko'zlangan maqsad – Vatan himoyasi yo'lida mardonavor kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e'tibor va chuqur ehtirom ko'rsatish, g'alabaga bebaho hissa qo'shgan O'zbekiston fuqarolari – 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini munosib ravishda izzat-ikrom bilan sharaflashdir.

EZGULIK CHAROG'I

O'zbekistonga evakuatsiya qilingan ziyolilarning dil izhorlari

Shu munosabat bilan davlatimiz rahbarining bir necha hujjatlari izma-iz e'lon qilindi. Bu o'rinda, xususan, O'zbekiston Prezidentining 2025-yil 19-fevralda qabul qilingan "Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"gi va 25-fevralda qabul qilingan "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medalini ta'sis etish to'g'risida"gi farmonlari, shuningdek, "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va munosib nishonlash

to'g'risida"gi qarori haqida so'z bormoqda.

Jarohat olgan minglab jangchilar O'zbekistonda tashkil etilgan harbiy gospitallarda davolangan. Urush o'chog'iga aylangan o'lkalardan yurtimizga 1 million 500 ming kishi, jumladan, 250 mingdan ziyod bola evakuatsiya qilingan.

Xalqimiz ularga o'z uyidan joy berib, so'nggi burda nonini ham baham ko'rgan. Elikimning bunday jasorati, bag'rikenglik, mehr-muruvvat va insonparvarlik fazilatlarini hali-hamon shon-sharaf va ibrat maktabi, g'urur-iftixorning tuganmas manbayi, barcha

davlatlar va xalqlar uchun o'rnak namunasi bo'lib kelmoqda.

Belarusdan evakuatsiya qilingan Yelena Bober keyinchalik shunday hikoya qilgan: "O'zbeklar bizga biror narsa bo'yicha biror marta ta'na qilmagan."

Ular juda kamtarona yasharkan, ammo hamisha topgan-tutganini biz bilan baham ko'rishdi. O'shanda hech kim millat ajratmagan. O'zbeklar yoki ruslar, ukrainlar yoki yahudiylar bo'lsin – biz hammamiz og'a-ini, opa-singil edik."

(Davomi 3-sahifada.) ➤

TARIX VA TAQDIR

ALUSHTADAN ESGAN YELLAR

1979-yil kuzida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining yosh ilmiy xodimlari – yigirma to'rt yigit paxtaga jo'nadik. Chinozning bir qishlog'idagi maktab binosida yotib, "oqoltin" teramiz. O'sha kez hammamiz yosh, orzular katta, dunyoda bizdan bearmon odam yo'qday.

Bu qishloq aholisi qrimtatarlar ekan. Sarishta el, har bir uy oqlangan, ko'chalar orasta. Odamlari xushmuomala, lekin og'irkarvon. Yaxshi salomlashishadi, ammo tanishib chaqchaqlashishga xushlari yo'q negadir.

Xayriyatki, oradan ikki-uch kun o'tgach, o'zimiz tengi bir yigit

biz bilan el bo'lib qoldi. Oti Xalil ekan. Sal soddaroq, anoyiroq. Gaplari ham shaldir-shuldir. Tili deyarli o'zbekcha. Ertasi kuni bir qrimtatarcha qo'shiqni kuylab bergan edi, ohangi-yu so'zlari hammamizga yoqib qoldi. Qayta-qayta aytirib, yodlab olib, birga xirgoyi qildik:

Alushtadan esken yeller yuzume urdi,
Bolalig'im o'tken yerler yadima tushtu.
Men bu yerde turalmadim,
Vetenime baralmadim,
Ey, go'zel Qrim!..

(Davomi 7-sahifada.) ➤



MALHAM



DARD YOMONI...

Juda yaqin o'tmish. So'ridagi oqsoqollardan biri gazetni ikki ayirib, so'nggi sahifadagi tibbiy maslahatdan bir shingilni teng-to'shlariga havola qiladi: "Boshni sovuq, oyoqni issiq tut, shunda bosh senga yo'lamaydi". Boshqasi ma'qul, deganday bosh iring'ab, ko'k choydandan simiradi. Biri gazetxonlik oyoqlaganini ilg'ab, radio qulog'ini buraydi. Qadrdon ohangini topadi-yu, ko'zini yumib, bosh tebrata boshlaydi. O'sha qo'shiq taxminan bundog': "Dard yomoni qarilikdir, yoronlar..."

Darvoqe, yaqin yillargacha tizza va bel og'riqlari chol-u kampirlarning kasali hisoblanardi. Lekin noliish-oh-vohlar obyekt to'g'ri yosharib borayotgandek... Tog'ni ursa, talqon qiladigan yoshlar ham tizza quchib, shifoxona qabulxonasida g'ujanak bo'lib o'tirgani, ayniqsa, xavotirli. Xo'sh, aholi orasida nega tizza bo'g'imlari yemirilishi, chanoq-

son bo'g'imi displaziyasi va shu kabi tayanch-harakat tizimi bilan bog'liq muammolar yildan yilga ortib bormoqda? Kasallikning kelib chiqish sabablari va davosi haqida ma'lumot olish uchun Respublika tibbiyot xodimlarining markaziga boralik. U yerda bizni Janubiy Koreyaning Tejon tibbiyot texnologiyalari instituti professori, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, travmatolog-ortoped Kamolxo'ja Eshnazarov kutib oldi va savollarimizga atroflicha javob berdi: "Nafaqat tizza bo'g'imlari, bel, chanoq-son sohasidagi muammolar ko'paygani sir emas. Tizza bo'g'imining artrozi eng keng tarqalgan ortopedik patologiyalardan biri hisoblanadi. Bu kasallik tog'ay shikastlanishi, yupqalashishi va suyak yemirilishiga olib keladi. Doimiy og'riq sindromi tufayli bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada yomonlashtiradi va nogironlikni keltirib chiqaradi".

(Davomi 5-sahifada.) ➤



INSON ULUG' — XOTIRA MUQADDAS!

Boshlanishi 1-sahifada.

Ikkinchi jahon urushida o'zbekistonliklar Gitler Germaniyasi va unga ittifoqdosh mamlakatlar tomonidan bosib olingan Yevropa davlatlarini ozod qilishda ham chinakam jasorat va matonat namunalarini ko'rsatdilar. Ular Yugoslaviya, Bolgariya, Gretsiya, Italiya, Norvegiya, Fransiya, Chexoslovakiya hududlarida mardlarcha jang qildilar.

Sovet Ittifoqi Qahramonlaridan Ilyos O'rozov, Qo'chqor Qarshiyev Vengriya uchun janglarda, Juman Qoraqulov Chexoslovakiya uchun janglarda, general-mayor Sobir Rahimov Gdansk uchun jangda qahramonlarcha halok bo'ldi.

Yevropaning ozod qilinishida o'zbekistonliklarning ishtiroki ahamiyatli bo'ldi. Masalan, Sovet Ittifoqi Qahramoni Tojiali Boboyev Berlin yo'lidagi strategik ahamiyatga ega bo'lgan Sileziya temiryo'l vokzaliga bayroq o'rnatishga muvaffaq bo'ldi. Muxtor Rasulov birinchi uchuvchilar safida Reyxstag maydoni uzra razvedka fotosuratlarini bosh shtabga yetkazib berdi. 150-o'qchi diviziyasi tarkibida jangga kirgan Karimjon Isoqov esa Reyxstag gumbaziga g'alaba bayrog'ini o'rnatdi.

O'sha olovli yillarda O'zbekistonda yetti yoshdan yetmish yoshgacha butun xalqimiz "Hamma narsa — front uchun, hamma narsa — g'alaba uchun!" deb yashadi, orom va halovatdan kechib, tinimsiz mehnat qildi.

Yurtimiz front uchun barcha zarur narsalarni yetkazib beruvchi muhim tayanch markazlardan biriga aylandi. Ishlab chiqarish korxonalari harbiy maqsadlarda qayta tashkil etilib, qisqa muddat ichida respublikada 280 ta yangi korxona qurilib, ishga tushirildi. 1941-yil oxiriga kelib, 300

oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar, avvalambor, "Inson qadri ulug' — xotira muqaddas" degan ulug' insoniy tuyg'ular asosida olib borilayotganini alohida ta'kidlash zarur.

Yangi O'zbekistonda jasorati, mardona mehnati, metin irodasi va insoniyligi bilan bashariyatni fashizm balosidan saqlab qolib, dunyoda tinchlik o'rnatilishiga hissa qo'shgan yurtdoshlarimizning muqaddas xotirasiga hurmat bilan munosabatda bo'lish oliy qadriyat hisoblanadi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning shaxsiy tashabbusi asosida 2020-yili 9-may — Xotira va qadrlash kuni hamda Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan g'alabani 75 yilligi munosabati bilan Toshkent shahrida muhtasham "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi va "Shon-sharaf" davlat muzeyi barpo etildi.

O'zbek xalqining shonli tarixi, yengilmas irodasi, mardligi va matonati, bemisl jasorati va qahramonligi haqida hikoya qiluvchi ushbu mahobatli muzey yurtimiz va xorijdagi arxiv hamda muzeylarda, urush qatnashchilari va ularning oilalarida saqlanayotgan noyob hujjatlar, fotosurat va ma'lumotlar asosida tashkil etildi. Bugungi kunda ushbu maskan xalqimizning muqaddas qadamjolaridan biriga aylanib, zamondoshlarimiz, ayniqsa, yoshlarimizni tarixdan to'g'ri xulosa chiqarib, doimo hushyor va ogoh bo'lib, mard va olijanob ajdodlarimizdan ibrat olib yashashga da'vat etib kelmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, davlatimiz rahbarining topshirig'i bilan so'nggi yillarda tarixiy adolatni tiklash, o'zbek xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan munosib hissasini

monografiya va kitoblari yaratilib, ilmiy ishlar himoya qilinmoqda. Natijada xalqimizning urush yillarida ko'rsatgan matonati va jasorati, urushdan qaytmagan, bedarak yo'qolgan ming-minglab yurtdoshlarimizning muqaddas xotirasi tiklanmoqda. Shonli qahramonlarimiz haqida hujjatli va badiiy filmlar suratga olinmoqda.

Niderlandiyalik va o'zbekistonlik mutaxassislarining sa'y-harakati bilan urush yillarida fashistlar tomonidan asirga olingan, "Amersfort" konslagerida aql bovar qilmas qiynoqlarga solinishiga qaramay, o'z sha'ni, g'ururi va insoniylik xislatlarini saqlab qolgan 101 nafar o'zbek o'g'loni xotirasining abadiylashtirilgani ana shunday savobli ishlardan biri bo'ldi.

Ma'lumki, Niderlandiyaning Lyosden shahridagi "Rustxo" qabristoni hududida "Sovet shon-sharaf maydoni" (Совetskoe поле славы) yodgorlik majmuasi mavjud bo'lib, ushbu majmuada Ikkinchi jahon urushi davrida "Amersfort" konslageriga keltirilib, shu yerda mangu qo'nim topgan 101 o'zbekistonlik harbiy asirlarning qabrlari joylashgan.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, 1941-yilning kuzida asir olingan o'zbekistonlik askarlar fashistlar tomonidan bosib olingan Niderlandiya hududidagi "Amersfort" konslageriga keltiriladi. Bir yuz bir nafar mahbusning 24 nafari 1941-yilning qishida qiynoq va kasalliklar tufayli qurbon bo'ladi. 77 nafari esa 1942-yil 9-aprel kuni erta tongda yaqin atrofdagi o'rmonda otib tashlanadi.

Ta'kidlash kerakki, qariyb chorak asr davomida ushbu asirlarning taqdiri haqida izlanishlar olib borgan niderlandiyalik tadqiqotchilari, "Sovet shon-sharaf maydoni" fondi rahbari Remko Reyding sa'y-harakatlari bilan "Amersfort" konslagerida fashistlar qurboni bo'lgan sovet harbiylarining qabristonida dafn etilgan 865 nafar noma'lum askardan 101 nafari Markaziy Osiyodan, asosan O'zbekistondan ekani ma'lum bo'ldi. Remko Reyding va o'zbekistonlik mutaxassislarining birgalikda olib borgan qidiruv ishlari natijasida hozirga qadar 7 nafar asirning shaxsiga aniqlik kiritildi.

O'zbekistonda 101 asir bo'yicha badiiy va hujjatli filmlar suratga olindi. Ushbu filmlar uchun zarur faktologik ma'lumotlar aynan Remko Reyding tomonidan taqdim etildi. Shuningdek, Toshkent shahridagi "G'alaba bog'i"da alohida installatsiya, "Shon-sharaf" muzeyida ekspozitsiya tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasining Benilyuks mamlakatlaridagi elchixonasi hamda R.Reyding boshchilik qilayotgan fond sa'y-harakatlari bilan har yili 9-aprel kuni an'anaviy ravishda Ikkinchi jahon urushi davrida Lyosden shahridagi "Amersfort" konslagerida qatl etilgan o'zbek askarlari xotirasiga bag'ishlab xotira tadbirlari o'tkazib kelinmoqda.

Bu yil Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaga 80 yil to'lishi munosabati bilan Remko Reydingning tashabbusi hamda O'zbekiston rahbariyatining moddiy va ma'naviy yordami asosida bu yerda 101 o'zbekistonlik askar xotirasiga bag'ishlab muzey tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshirig'iga binoan, joriy yilning 2–4-may kunlari Niderlandiya Qirolligining Lyosden shahridagi urush qurbonlari xotirasiga bag'ishlangan tantanali marosimda ishtirok



etish uchun mamlakatimiz delegatsiyasining tashrifi amalga oshirildi.

Delegatsiya a'zolari Ikkinchi jahon urushida fashizm qurboni bo'lgan askarlar, jumladan, 101 o'zbek askari xotirasiga bag'ishlab tashkil etilgan muzeyda bo'lib, urush qurbonlari xotirasiga bag'ishlangan marosimda ishtirok etdilar. Tadbirlarda Niderlandiyaning Lyosden shahri meri Gerolf Baumister, "Sovet shon-sharaf maydoni" jamg'armasi rahbariyati, mahalliy OAV va keng jamoatchilik vakillari, oliy o'quv yurtlari talabalari hamda maktab o'quvchilari, Niderlandiyada istiqomat qilayotgan o'zbekistonlik vatandoshlar qatnashdilar.

Ishtirokchilar xotira maydonida dafn etilgan 865 nafar askarlar, shu jumladan, o'zbekistonlik 101 nafar askar qabriga gul qo'yib, hurmat bajo keltirdilar.

Delegatsiya a'zolari O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan munosib hisssasi, bu borada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar haqida to'xtalib, Remko Reydingning ajdodlarimiz xotirasini tiklash va abadiylashtirish yo'lidagi xizmatlarini alohida e'tirof etdilar. Shundan so'ng "Sovet shon-sharaf maydoni" fondi rahbari Remko Reyding va uning yordamchisi Natalya de Yongga O'zbekiston Respublikasi hukumatining maxsus sovg'alari hamda Mudofaa vazirligi tomonidan ta'sis etilgan ko'krak nishoni tantanali topshirildi.

— Niderlandiyaning Lyosden shahrida o'zbekistonlik 101 nafar askar xotirasiga bag'ishlab tashkil etilgan muzey Niderlandiya jamoatchiligi va tashrif buyuruvchilarni Ikkinchi jahon urushining mudhish va halokatli oqibatlarini, O'zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan munosib hisssasi, ko'rsatgan iroda va jasorati haqida xabardor etadi va ularning muqaddas xotirasini abadiylashtirishga xizmat qiladi, deb o'ylayman.

An'anaga ko'ra, bugun ham har yilgidek mazkur xotira maydonida dafn etilgan 865 nafar askarlar, shu jumladan, 101 nafar o'zbekistonlik askarlarning qabrlariga gul

qo'ydik, ularning xotirasini yodga oldik. Biz ularning jasorati va ozodlik uchun olib borgan kurashlarini unutmaymiz.

O'zbekiston Respublikasi rahbariyatiga yaqin hamkorlik uchun alohida minnatdorlik bildiraman. Men bugun O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining maxsus mukofoti bilan taqdirlandim. Bildirilgan yuksak ishonch va ko'rsatilgan ehtirom uchun o'zining samimiy tashakkurimni bildiraman.



Remko REYDING,
Niderlandiyaning "Sovet shon-sharaf maydoni" fondi rahbari

— Bugun biz "Sovet shon-sharaf maydoni"da har bir qabriga guldastalar qo'yish orqali ularning xotirasiga hurmat bajo keltirmoqdami.

Bu tadbirni tashkil etish orqali biz Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan o'zbekistonlik 101 nafar askar xotirasini abadiylashtirishni maqsad qilganmiz.

Tadbirda O'zbekiston delegatsiya a'zolari, diplomatik korpus vakillari, ko'ngillilar, jamg'armamiz xodimlari, mahalliy OAV vakillari va boshqalar ishtirok etmoqda.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston tomoni bilan yaqin hamkorligimiz tufayli, o'zbekistonlik 101 nafar askar haqida ko'proq o'rgandik va ma'lumot oldik. Ularning shaxsini aniqlash va qabrlarini tiklashda O'zbekiston tomoni ko'rsatayotgan ko'makdan minnatdormiz.

Natalya de YONG,
Niderlandiyaning "Sovet shon-sharaf maydoni" fondi vakili

Tadbir so'ngida O'zbekiston Respublikasining Benilyuks mamlakatlaridagi elchixonasi tomonidan tadbir ishtirokchilariga milliy taomlar taqdim etildi.

Insoniyatni fashizm balosidan asrab qolish yo'lida jon fido qilgan, yengilmas iroda va bemisl jasorat ko'rsatgan, janggohlarda mangu qo'nim topgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish borasida tashkil etilgan bu kabi tadbirlar va savobli amallar bugungi Yangi O'zbekistonda inson qadri va sha'ni ustuvor ahamiyat kasb etayotganidan dalolatdir.

Saidxon SAIDOLIMOV

Toshkent — Lyosden — Toshkent.



dan ortiq korxonalarda harbiy mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston frontga 2 mingdan ortiq samolyot, 17 mingdan ziyod aviamotor, 17 mingdan ortiq minomyot, 560 ming dona snaryad, 300 mingdan ortiq parashyut, 1 millionta granata, 2 yarim millionga yaqin aviabomba, 22 millionta mina va boshqa harbiy anjomlar, front hamda qamaldagi hududlar aholisi uchun mablag', oziq-ovqat, dori-darmon va issiq kiyimlar yetkazib berdi.

1941–1945-yillarda O'zbekiston butun ittifoq gosptaliga aylandi. O'n minglab askar va ofitserlar bu yerda davolanib, urushga yoki front ortidagi mehnat faoliyatiga qaytdilar. Xalqimiz front hududlaridan ko'chirib keltirilgan 1 million 500 mingga yaqin odamga boshpana berib, o'zining so'nggi burda nonini ular bilan baham ko'rgani, ota-onasi, oilasidan judo bo'lgan 250 ming nafar yetim bolani "Sen yetim emassan!" deya bag'riga olgani insonparvarlikning chinakam namunasi bo'ldi. O'zbekistonliklar ozod qilingan g'arbiy hududlarni tiklashda ham faol ishtirok etdi.

Bir so'z bilan aytganda, xalqimizning Ikkinchi jahon urushi davrida front va front ortida ko'rsatgan qahramonligi shu qadar yuksakki, bu shonli g'alabani O'zbekistonsiz, o'zbek xalqisiz aslo tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida bugun mamlakatimizda buyuk maqsad — Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga

chuqur o'rganish, Ikkinchi jahon urushida qatnashgan vatandoshlarimiz nomlarini tiklash va abadiylashtirish maqsadida keng ko'lamlı ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mavzuga doir ko'plab ilmiy maqolalar,





Boshlanishi 1-sahifada.

Mashhur bolalar yozuvchisi Korney Chukovskiy o'sha voqealarni shunday xotirlagan: "Avvallari haqiqatan ham hech qachon boshqa millatga, boshqa turmush tarziga, boshqa tilga, boshqa tabiatga, boshqa o'lkaga mansub odamlar qochoqlarga chin yurakdan muhabbatini izhor etganiga va hurmat ko'rsatganiga duch kelinmagan. Bu tarixda birinchi marta bo'lmoqda. Xalqlar do'stligi qanday katta ahamiyatga ega ekanligini yaxshi bilardim, ammo bu shu qadar otashin, samimiy, shu qadar nafis bo'lishi mumkinligi xayolimga ham kelmagan edi".

Isroillik Mark Fuks urush yillarida o'zbek xalqining yahudiy millatiga mansub qochoqlarga ko'rsatgan mehr-oqibatini shunday baholagan: "Agar "jahonning iymonli xalqi" nomi berilishi kerak bo'lsa, birinchi navbatda, bu oliy unvonga o'zbek xalqi munosibdir. Butun bir xalqning shunday mehrbonlik fazilati o'ta noyobligi bilan erkin dunyo insonparvarlik hamjamiyatining eng to'ridan joy olishi uchun kafolatdir. O'zbekistonning umuman qochoqlarni, shu jumladan, yahudiylarni boshpana bilan ta'minlash, oyoqqa turg'izish, mahalliy sharoitga moslashtirish bo'yicha noyob tajribasi insoniyatning oltin fondidan joy olishi muqarrarliligi bilan birga boshqalar tomonidan o'rganish, tahlil etish, eng yaxshi ma'noda taqlid etish uchun ibratdir".

O'sha yillarni onasi O'zbekistonga evakuatsiya qilingan Rossiya xalq artisti Yuriy Stoyanov shunday xotirlaydi: "Onamo o'zbeko'qituvchisining xonadoniga joylashgan, uning yetitta farzandi bo'lgan. Mening 1943-yilda maktabga borish vaqtim kelganda uyidan joy bergan o'qituvchi yakka-yu yagona dasturxonidan menga sumka, uning turmush o'rtog'i esa derazadagi bittagina pardadan ko'ylak tikib bergan. Haqiqatan ham o'zbeklar – saxiy, bag'rikeng, dono, buyuk va juda kamtarin xalq".

Korney Chukovskiyning yana guvohlik berishicha, u Toshkentga kelib, bolalar uylarining oldida bola olish uchun navbatda turgan odamlarni ko'rib, hayratga tushgan.

Mana shu manzara rus yozuvchisi Konstantin Simonovning "Tiriklar va o'liklar" romanida ham o'z ifodasini topgan: "...oqshomlarning birida vokzal yonidagi maydonda bir necha ming evakuatsiya qilingan bolalar yotganini ko'rish mumkin edi. Ertalab esa ana shu ochiq maydonda tunagan minglab bolalardan hech kim qolmabdi: odamlar ularning hammasini o'z qanoatlari ostiga olishibdi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat

EZGULIK CHAROG'I

O'zbekistonga evakuatsiya qilingan ziyolilarning dil izhorlari

Mirziyoyev Ikkinchi jahon urushi yillarida yuksak mehr-oqibat va muruvvat namunasini ko'rsatgan Shoahmad va Bahri Shomahmudovlar jasoratini alohida qayd etar ekan, "Yer yuzida juda kamdan kam davlat va millat bunday yuksak insoniy fazilatlar bilan g'ururlanishi mumkin. Vaqt o'tgan sari Shomahmudovlar oilasi ko'rsatgan bu qahramonlikning ahamiyati va qadri tobora oshib bormoqda", deb ta'kidlagani bejiz emas.

Binobarin, bundan 80 yilcha ilgari mashhur rus shoirasi Anna Axmatova shunday e'tirof etgan: "Milliy qadriyatgina odamlarni buyuk do'stlik sari chorlab, qalb va tafakkurga sadoqat va jasorat tuyg'usini hadya etadi, odamiylikni ulug'lashga imkon yaratadi. Insonparvarlikning yuksak darajasi Shoahmad va Bahri ayalarning qonida emasmi? Dunyo ostin-ustun bo'layotgan bir pallada shu qadar mehrga zor norasidani yaxshi insonlar qilib yetishtira olgan bu ikki zotni eng ulug' Ota va eng ulug' Ona degimiz kelmaydimi?!"

Anna Axmatova qamalda qolgan Lenin-graddan Chistopol shahriga ko'chirilgan. Dushmanning bu hududga ham bostirib kirish xavfi tug'ilgandan keyin u ming azob bilan Toshkentga kelishga muvaffaq bo'lgan. Bu paytda shoiraning turmush o'rtog'i o'tib tashlanib, o'g'li qamoqqa olingan edi. Uning Toshkentda bitgan "Mardlik" she'ri yigirma yillik taqiqlan keyin birinchi marta 1942-yili markaziy nashr – "Pravda" gazetasida e'lon qilinib, juda mashhur bo'lib ketgan.

Urushning 800 kunini Toshkentda o'tkazgan Anna Axmatova bu bag'rikeng o'lka va uning odamlariga nisbatan o'zining cheksiz hurmatini shunday izhor etgan:

*Minnatdor tuyg'ular oqadi to'lib,
Rahmat va xayr! – sizga, azizlar.
Durrachamni silkiyman kulib,
Rahmat, Oybek, rahmat,*

*Chustiy! – sizga azizlar.
Rahmat, Toshkent! – kechir, meni kechirgil,
Sokingina go'sham, eng ko'hna uyim.
Yulduzlarga rahmat, gullarga rahmat,
Yosh va dilbar qora sochli onalar,
Shirin kulchalar tutgan bolalar,
Shu jaiji qo'lhalar, qo'l'larga rahmat!
Sakkiz yuz kunim – mo'jizaviy sas,*



Shoahmad va Bahri aya Shomahmudovlar oilasi.

*Shu moviyrang cheksiz osmon ostida,
Shu lojuvard tubsiz ummon ostida
Biz birga yashadik yorqin, o'tnafas,
Ey, otashin bog'...*

Shoira hayotining so'nggi yillarida og'ir xastalik tufayli hech kimni oldiga kirgizmaslikni buyurgan. Faqat birgina istisno bor edi. "Agar O'zbekistondan, Toshkentdan yo'qlaydiganlar bo'lsa, oshig'ich oldimga olib kiring", degan ekan Anna Axmatova.

Taniqli o'zbek adibi Rahmat Fayziyning "Hazrati inson" romani va "O'zbekfilm" kinostudiyasida suratga olingan "Sen yetim emassan" badiiy filmiga Shomahmudovlar oilasining hayoti asos bo'lgani, ushbu oila sharafiga Toshkentdagi "Xalqlar do'stligi" maydonida muhtasham monument o'rnatilgani barchaga ma'lum. Shoahmad ota "Hurmat belgisi" ordeni bilan mukofotlangan. Bahri ona esa "Qahramon ona" sifatida e'tirof etilgan. Poytaxtimizning Shayxontohur tumani "Obinazar", "Jarariq" mahallalari hududida joylashgan ko'chaga Shoahmad Shomahmudov nomi berilgan.

Orenburg davlat universiteti Janubiy Ural tarixi va etnografiyasi ilmiy-tadqiqot insti-

tuti direktori, tarix fanlari doktori Venaliy Amelin ta'kidlaganidek: "O'zbekiston Rossiya, Ukraina, Belarus ilmiy-badiiy doiralariining eng iste'dodli ziyolilarini muqarrar halokatdan saqlab qolganini yodda saqlash muhim. Shu bilan birga, ana shu joydan frontdan olisda janggohlarga qurol-aslaha uzluksiz yetkazib berib turlidi. Mamlakatning mudofaaga qo'shgan ulkan hissasi uchun minnatdorlik tarix xotirasida, urush fojiasini boshidan o'tkazganlar yodida abadulabad qoladi".

Taniqli adabiyotshunos Aleksandr Deych esa o'z esdaliklarida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi Hamid Olimjonning evakuatsiya qilingan adiblarga: "Biz, Toshkent sizlar uchun shunchaki vokzalning kutish zali emas, balki butun umr xotirangizda qoladigan qadrdon uyingiz bo'lishini istardik", degan so'zlarini keltirgan. "Favvora-film" studiyasining taniqli jurnalist Boris Boboyev, rejissyor Hojimurod Valiyev va operator Abdulla To'laganovdan iborat ijodiy guruhi tomonidan suratga olingan "Toshkentning katta yuragi" filmi ham ushbu mavzuga bag'ishlangan.

Rossiya Fanlar akademiyasi arxivi Axborot texnologiyalar laboratoriyasining rahbari, tarix

fanlari nomzodi Irina Ilna shunday xotirlaydi: "O'zbekistondan bir umrga minnatdormiz. Uyimizga qaytib kelgandan keyin Toshkentda yashagan davrimizga fikran doim murojaat qilib turganmiz. Urush yillaridagi maishiy muammolar o'z yo'lga. O'sha o'chmas, o'ziga xos va boy madaniyatga, maftunkor tabiatga ega O'zbekistonda amalga oshirgan ilmiy tadqiqotlarimiz xotiramizda mangu saqlanib qoladi".

Toshkentga urush yillarida evakuatsiya qilingan Belarus xalq shoiri, akademik Yakub Kolas esa ko'zida yosh bilan O'zbekiston o'zining "jigari" ekanligini izhor etadi:

*Bir qilichni birga toblab,
Birga bo'ldik elga darmon.
Mehring berding nurga qoplab,
Ey jigirim, O'zbekiston!*

*Yana nafas urdi bahor
Bizning ona tuproqqa ham.
Shu kuy bilan ko'zimda nam:
Yaxshi qol, ey nurli diyor!*

A.S.Pushkin nomidagi Leningrad davlat universiteti tarix kafedrası professori, tarix fanlari doktori Nikolay Kozlov bu haqda shunday xotirlaydi: "O'zbekiston xotin-qizlarining mamlakat ayollariga evakuatsiya qilingan bolalarga onalik mehrini ko'rsatish haqidagi da'vatiga minglab oilalar xayrixoh bo'ldilar. Ular temiryo'l vokzallariga kelib, ko'chirib kelingan bolalarni o'zlari bilan olib ketishardi. Buxoro viloyatidan oilalar asrab olishi uchun bolalar yetishmayotganligini, ular boshqa shahar va viloyatlarda qolgan bo'lsa, ularga yuborishini so'rab murojaat qilishgan. Bolalarni asrab olganlar uyining to'rini ko'chirib kelingan odamlarga berishar, o'zlari och bo'lsalar ham so'nggi burda nonini ularning qo'lga tutqazardi. Biror oilada asrab olingan bolalar bilan bog'liq mojaroni eshitmaganmiz".

Mashhur yozuvchi Aleksey Tolstoy o'zbek xalqining ko'chirib kelingan bolalarga ko'rsatgan mehrbonliklariga shunday yuqori baho bergan: "O'zbekiston evakuatsiya qilingan bolalarni o'z bag'riga olishning tashabbuskori bo'ldi. Zotan, sefarzandlik, bolalarga alohida mehr bilan munosabatda bo'lish o'zbek xalqiga xos bo'lgan ajoyib fazilatdir. Ular bolalar to'g'risida to'liqlanib gapiradilar. Ishonamizki, O'zbekistonning bu tashabbusini boshqa respublikalar ham qo'llab-quvvatlaydi..."

Ha, Toshkent – non shahri. O'zbekiston esa muruvvat, saxovat va shafqat mamlakatidir.

Akmal SAIDOV,
akademik

MUNOSABAT

O'TMISHGA EHTIROM ILA KELAJAK BARPO ETILMOQDA

BOBURSHOH ORZULARI RO'YOBI

Zahiriddin Muhammad Bobur ulug' bobokalonlari Amir Temur va Mirzo Ulug'bek singari o'zidan meros qilib ilm-fani gullab-yashnagan davlat, dunyo ahli havasini keltiradigan imoratlar, so'lim bog'lar, obod shahar-u qishloqlar qoldirishni orzu qilib o'tdi. Afsuski, o'z ona yurtida bu orzuni amalga oshirish nasib etmadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvarda qabul qilingan "Buyuk shoir va olim, mashhur davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ijrosi yo'lida Boburshoh ilmiy merosini o'rganish va uning nomini abadiylashtirish bo'yicha boshlangan ishlar samarasini bugun Andijonda bunyod etilgan yangi shaharcha – smart siti qiyofasida ko'rishimiz mumkin.



ulug' ajdodlarga nisbatan sadoqati va ularning orzu-umidlarini davom ettirishga tayyor ekan amaliy tasdiq topadi.

YANGI O'ZBEKISTONNING "SHARQIY DARVOZASI"

O'zbekiston bugun nafaqat o'z tarixiga, balki kelajagiga ham jiddiy e'tibor qaratayotganini yana bir bor amalda namoyon etdi. Bobur xotirasining u tug'ilib o'sgan zamin – Andijonda ulug'lanishi bu yo'ldagi tarixiy adolatning tiklanishi bo'lib, bu yerda Boburshoh nomi bilan bog'liq me'moriy majmua qurish tashabbusi – Prezidentimizning uzoqni o'ylagan, puxta rejalashtirilgan g'oyalardan biridir. Bu tashabbus buyuk ajdodimiz merosiga hurmat, tarixni qadrlash va yosh avlod qalbida milliy g'ururni uyg'otishga xizmat qiladi. Ma'lumki, mamlakatimizning sharqiy darvozasi sanalgan Andjon katta imkoniyat va salohiyatga ega. Bu hudud muhim tranzit zona sifatida dunyo sayyohlari e'tiborini tortmoqda. Kelgusida iqtisodiy habga aylanishi kutilayotgan shaharning qiyofasi ham shunga mos va xos bo'lmog'i shart. Boburshoh shahridagi majmuada "Boburnoma" mazmuni va mundarijasini o'ziga xos virtual va jonli tarzda

aks ettiradigan ulkan muzey yaratilishi ko'zda tutilmoqda. Bir necha gektarga cho'zilgan maydonda Bobur davri, uning sulolasi tomonidan jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shilgan hissa, "Boburnoma"da tilga olingan va tasvirlangan o'simliklar, hayvonot olami, Bobur hayoti va ruhiy kechinmalari bilan bog'liq virtual sahnalar, ulug' bobomizning sarkardalik mahorati va shuning barobarida nozikta'bi dil sohibi ekanini tasdiqlaguvchi shoirlik iqtidori haqidagi ma'lumotlar bugungi davrning eng ilg'or texnologiyalari yutuqlaridan foydalangan holda ko'rsatiladi.

Boburshoh shahrida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik va infratuzilma ishlari mamlakatimizdagi islohotlarning eng asosiy tamoyili – "Inson qadri uchun" g'oyasining amaliy ifodasi ekanini yaqqol namoyon etmoqda. Qisqa muddat ichida 1680 o'rinni zamonaviy maktab, 420 o'rinni bolalar bog'chasi va 250 qatnovga mo'ljallangan poliklinika foydalanishga topshirilgani – xalqimizga bo'lgan yuksak g'amxo'rlikning yorqin namunasidir. Bu kabi inshootlar yosh avlod tarbiyasi, sog'lig'i va ta'limi uchun munosib sharoit yaratish, kelajak avlod kamolotini ta'minlash yo'lidagi izchil va qat'iy qadamlardir. Shuningdek, shaharda

yengil sanoat korxonasi, ipoteka markazi kabi muhim ijtimoiy-iqtisodiy obyektlar ham tashkil etildi. Bu kabi loyihalar Boburshoh shahrida istiqomat qiluvchi aholining kundalik hayotida qulaylik, barqaror daromad va istiqbolni ta'minlashga qaratilgan. Loyihaning to'liq amalga oshishi natijasida ushbu maskanda 500 ming nafarga yaqin fuqaro istiqomat qilishi ko'zda tutilgani – uning strategik va demografik ahamiyatini yanada oshiradi.

Bu xayrli ishlarning tamal toshi yaqinda qo'yilgan bo'lsa-da, qisqa vaqtda yuzaga kelgan natijalar tarixiy voqelik sifatida qayd etiladi. Ilk bosqichda hatto ayrim mutaxassislar va quruvchilarning o'zi bu kabi loyihalarga shubha bilan qaragan edi. Ammo hayot shunga ishora qildiki, qat'iyat va ezgu niyat bilan boshlangan har qanday ish, albatta, samara beradi. Shu ma'noda, Boburshoh shahrini yangi taraqqiyot maskani deb atashda hech qanday mubolag'a yo'q. Zero, bu shaharning yaratilayotgan yangi tarixi – Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan insonparvar g'oyalar, davlatchilik tamoyillari va ma'naviy yuksalish strategiyasining hayotdagi amaliy ifodasidir.

INSON QADRI ULUG'LANGAN YURT

Bugungi kun – Yangi O'zbekistonning yangi tarixi bitilayotgan davrdir. Bu tarix nafaqat yangi islohotlar, balki yangi dunyoqarash, yangilangan davlat boshqaruvi falsafasi, inson qadriga asoslangan taraqqiyot modeli bilan belgilanmoqda. Prezidentimiz rahbarligida mamlakatdagi har bir hududga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat rahbarining dastlabki faoliyatidanoq manzilli yondashuvga asoslangan amaliy strategiya ishlab chiqildi. Bu jarayonda har bir viloyat, har bir tuman va shaharning muammolari tahlil qilindi, o'sish nuqtalari aniqlandi. Ilmiy asoslangan tashxislar, teran tahlil va aniq yo'nalishlar asosida hududiy rivojlanish konsepsiyalari ishlab chiqildi. Ayni shunday oqilona yondashuv tufayli so'nggi yillarda mamlakat infratuzilmasi tubdan yangilandi, nomarkazlashtirish jarayonlari jadal sur'atlarda olib borildi. Ilgari e'tibordan chetda qolgan, mard va bag'rikeng xalq yashaydigan chekka hududlarimizga hayot nafasi – ma'naviy va iqtisodiy taraqqiyot kirib keldi. Har bir hududda yangi ish o'rnlari yaratildi, yangi

imkoniyat va zamonaviy sharoitlar vujudga keldi.

2016-yilgacha deyarli unutilish arafasida turgan Manas, Mo'ynoq, Mirzachol kabi hududlarga ham davlat e'tibori qaratildi. Bu joylarda ham Yangi O'zbekiston islohotlarining shabadasini his etildi. Qaynoq islohotlar nafaqat markazda, balki butun mamlakat bo'ylab yoyilgan holda, yanada keng qamrovli hayot va taraqqiyot manzarasini shakllantirmoqda. Shu ma'noda, Boburshoh shahrining barpo etilishi nafaqat tarixiy shaxsga ehtirom, balki hududiy taraqqiyot siyosatidagi yangi bosqichning ramziy ifodasidir. Ushbu tashabbus asosida yaqin kelajakda mamlakatimizning g'arbiy va janubiy hududlarida ham Temur, Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi singari buyuk ajdodlarimizning nomlari bilan ataladigan shaharlar paydo bo'lsa ne ajab. Bu esa nafaqat ma'naviy ehtiyoj, balki milliy o'zlik va tarixiy xotirani qayta tiklashga qaratilgan yuksak ma'rifatiy yurishdir. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, bunday tarixiy nomlarning tiklanishi va shaharlar orqali abadiylashishi – so'nggi qirq yilda kuzatilgan ulkan siyosiy, ma'naviy va falsafiy voqeliklardir. Bunday jarayonni tan olish, baholash va qo'llab-quvvatlash esa – millat taqdiriga befarq bo'lmagan har bir insonning vatanparvarlik burchidir.

Prezidentimizning: "Bobur shahri – madaniyat va ma'rifat maskaniga aylanadi", degan so'zlari qalbingma nur bag'ishladi. Ayniqsa, kelgusida Boburshoh nomidagi tematik park, "Boburnoma" ruhini aks ettiruvchi muzeylar, tarixiy obidalarining maketlari barpo etilishi – bu yoshlarimizning ilimga, ma'naviy kamolotiga xizmat qiladi. Majmuada har yili rassomlar festivalini o'tkazish haqidagi tashabbus ham katta quvonch bilan kutib olindi. Bu shahar nafaqat ilm-fan va san'at markaziga, balki Bobur bobomizning ruhiy vorislari bo'lgan yoshlar uchun haqiqiy parvoz maydoniga aylanadi. Prezidentimizning bu galgi tashrifi nafaqat Andijon ahli, balki biz, ziyoli va nuroniyalar uchun yuksak e'tibor va katta g'amxo'rlik ramzidir. Bunday ezgu ishlarni ko'rib, Allohga shukr qilaman – biz ana shunday ma'naviy yuksalish, tarixga ehtirom, kelajakka ishonch davriga guvoh bo'lmoqdamiz.

Shuhrat SIROJIDDINOV,
akademik



AKS SADO

Xabaringiz bor, gazetamizning o'tgan sonida sun'iy intellekt dasturi tomonidan o'zbek tilida yozilgan ilk badiiy asar – “O'zqir Sulaymon haqida hikoya” chop etilgan edi.

E'tiborli jihati, ushbu asar mushtariylarimiz o'rtasida katta qiziqish uyg'otdi. Taniqli ijodkorlardan tortib, turli soha vakillari ham biz bilan bog'lanib, bu mavzuda o'z fikrlarini bildirishmoqda. Quyida ana shunday munosabatlardan ayrimlarini sizlarga ham ilindik.

Gazetamizning keyingi sonlarida ushbu mavzu muhokamasini davom ettirish niyatidamiz.

TAHRIRIYAT


BILIMLI DASTYOR

Generatsion bu hikoyada turli uslublar qorishiqligi yaqqol sezilib turibdi. G'oyalarni aytasangiz! Turkiy xalqar birligi, qadimgi doston qahramoni ismi qo'yilgan o'g'ilning bevaqt vafoti, zamonaviy assimiylatsiyalar, Turkiyada o'zbek va qirg'iz bayroqlarining hilpirashi... Tashbeh ham bor: “Og'ir va achchiq xotiralar ustini qovjiragan o't-o'lanlar qoplagan...”

Shu bilan birga, voqealar oqimida ustoz yozuvchining o'tkir nigohi seziladi. Mavzu va tafsilotlar taniqli adib Xayriddin Sultonovga tegishli ekani mashqning hayotiyiligini ta'minlabdi. Aslida ustozlar va shogirdlar an'anasi adabiyotimizda keng tarqalgan. Tetapoya qilayotgan vaqtlarimizda ustozlar ayrim g'oyalarni bizlarga ilinardi. O'sha syujetlar asosida o'sib-ulg'aydik, inson hayoti, ruhiyatining nozik jihatlari ilg'ashni baholi qudrat o'rgandik.

Ustozlar darajasiga yeta olmas-u, ammo ancha-muncha qalamkashni ortda qoldirishi ham turgan gap. Nuqul aqlidan iborat bu generatarning paydo bo'lishi badiiy asar yaratuvchilarini saralab, ijod kishilari oldiga qo'yiladigan talabni azaliy marralariga yuksaltirib beradi. Insonning betakror ruhi, bilimi yorug'ida jilvalangan voqeili va xulosalar aks etgan asarlar har qachongidan ham qadrliror bo'lib qoladi. Ijod dunyosiga qadam qo'yyotgan yoshlarga ham tegishli: ular sun'iy dastyor taqdim etayotganlaridan ko'ra hayotiyroq va o'ziga xosroq asar yozishi kerak bo'ladi. Xullas, haqiqiy

HUZURJONOV HAMMANI HAYRON QOLDIRD



zo'rlargina “Neyroquljon”ning elagidan o'ta oladi.

“Huzurjonov” timsolida millionlab odamlar o'z shaxsiy yozuvchisiga ega bo'ladi. Mumtoz mutafakkirlarimiz madh etgan mo'jizakor qalam barchaga nasib qiladi. Har kim unga o'zidan kelib chiqib asar yozdirishi mumkin bo'ladi. Shu sababli uni “ishlatish”ning etikasi, ya'ni axloqiy jihatlari dolzarblik kasb etadi, menimcha. “Neyroquljon”ning o'zida bunday me'yorlar hozir ham bor, ammo axloq va e'tiqod masalalari haqida tobora ko'p gapirilyapti – kim bilsin, yaqin orada milliy hamda umuminsoniy axloq va etika

me'yorlari unga moslab qayta ko'rib chiqilsa ajabmas.

Albatta, sun'iy zakoning sun'iy ilhomi charxlanib boradi. Bir necha yildan so'ng “qo'l-oyog'i chaqqon”, o'ta bilimli bu dastyor shevalarimizni ham, so'zlarning hissiy jilolarini ham o'rganib olishiga, ona tilimizda mukammal matnlar yarata boshlashiga shubha yo'q.

“Jadid”imizga rahmat, sun'iy zakoni adabiyotimizga xizmat qildiribdi. Fanimiz, ilmimiz qatori el-yurt koriga yarayversin!

Isajon SULTON,
O'zbekiston xalq yozuvchisi

EVOLYUTSIYA

Men bu asarni adabiyotdagi inqilob deb emas, ish uslubidagi evolyutsiya deb qabul qildim. Sun'iy intellekt hozircha ruhni his qilmaydi, lekin so'zni his qiladi. U kechikmaydi, charchamaydi, tushkunlikka tushmaydi. U sizning g'oyalarigizni tezda shaklga soladi, syujetga aylantiradi, xatolarni topadi.

Bu – yozuvchi uchun xatar emas. Aksincha, erkinlik.

Hozirgi kunda, ayniqsa, tezlik va miqdor talab qilinadigan jurnalistika, ssenariy yoki targ'ibot sohalarida SI katta yordamchiga aylana oladi. U yozuvchi uchun dastlabki qoralama.

Albatta, har bir yangi texnologiyada bo'lgani kabi, SIni ishlatishda ham estetik, axloqiy va adabiy mas'uliyatni saqlash shart.

Menimcha, biz adabiyotni emas, ish usulimizni o'zgartiryapmiz. Sun'iy intellekt esa bu jarayonda – hamkor. Ustoz emas, shogird emas. Yo'ldosh.

“O'zqir Sulaymon” kabi tajribalar adabiyotdagi har bir insonga savol qo'yyapti: sen o'z ovozingni qanday saqlaysan? Qanday yangilaysan? Va qanday yurishni davom ettirasan?

Javob hamisha insondan chiqishi kerak. Lekin Tangri tomonidan berilgan quvvat – ilhom bilan birga, mashinalarning energiyasi ham orqada tursa – bundan faqat foyda bo'ladi.

To'liqin ESHBEK,
Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

BU – KATTA QADAM

“Jadid” gazetasida chop etilgan “O'zqir Sulaymon haqida hikoya”ni internet orqali o'qidim. AQShda turkiy tilda so'zlashuvchi fuqarolarning manfaatlarini himoya qilayotgan huquqshunos sifatida asar menga ikki jihatdan ta'sir qildi.

Birinchidan. Vatanimizda ilg'or texnologiyalarning adabiyotgacha bo'lgan sohalarga kirib borayotgani. Bu – katta qadam. Bu – men kabi yuzlab, minglab yurtdoshlarimiz uchun quvonchli yangilik.

Ikkinchidan. Bu texnologiyalar bilan bog'liq huquqiy xatarlar va qonun hujjatlarida hali ta'rifi bo'lmagan vaziyatlardir. AQShda bu mavzuda allaqachon sud presedentlari paydo bo'la boshlagan. Masalan, OpenAI, Google yoki Amazon kabi korporatsiyalar yozgan kontentlar kimga tegishli, mualliflik kimga beriladi, shu haqda qonunchilik doimiy yangilanmoqda.

O'zbekistonda esa hozircha SI (AI) orqali yaratilgan asarlar uchun mualliflik huquqi, gonorar, ma'naviy egalik kabi masalalar aniq va to'liq yechimini topmagan. “O'zqir Sulaymon...” kabi asarlar bu jarayonni tezlashtiradi.

SI ishtirokida yaratilgan asarlar uchun alohida huquqiy maqom ishlab chiqilishi lozim. Ya'ni “birgalikda yaratilgan asar” (joint-authorship) terminini qayta sharhlash kerak.

Nashr etuvchi va SIni boshqaruvchi shaxs o'rtasida shartnomaviy munosabatlar qonuniylashtirilishi shart. Bu nafaqat gonorar, balki javobgarlik masalalari uchun ham zarur.

Va eng muhimi, SI orqali yaratilgan kontentlar adabiy jarayonlarga integratsiyalashganda, u milliy ma'naviyat bilan ham uyg'unlashishi kerak.

Men “Jadid” gazetasini tabriklayman – sizlar birinchi bo'lib buni amalda ko'rsatdingiz. Bizning vazifamiz – jarayonni huquqiy jihatdan mas'uliyat bilan qo'llab-quvvatlash.

Erkinboy ABDULLAYEV,
huquqshunos, AQShda “ERC Consulting LLC” huquqiy maslahat va xizmatlar agentligi rahbari, Ogayo shtatida Davlat notariusi

MUTOLAA

“KUTIB OL, DUNYO...”

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi muassisligida 2024-yildan buyon chop etib kelinayotgan “Vatan” ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy jurnali qisqa fursatda keng jamoatchilikning diqqat-e'tiborini qozondi. Bugungi kunda ushbu nashr nafaqat yurtimizda, balki xalqaro intellektual doiralarda ham katta qiziqish bilan qarshi olinmoqda.



Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, Yangi O'zbekistondagi yangilanish jarayonlari, Vatanimiz tarixi va bugungi rivojlanish holati haqidagi tahliliy maqolalar jurnal sahifalaridan keng o'rin olgan. Nashrda yetakchi siyosatshunoslar, ziyolilar, tadqiqotchil, yozuvchi va jurnalistlarning eng sara maqolalari muntazam e'lon qilib boriladi.

Xususan, jurnalning 5-sonida ko'tarilgan dolzarb mavzudagi materiallar, mualliflar tomonidan fikrchan chiqishlar dizayn uyg'unligida nashrning o'ziga xos uslubga ega ekanini ko'rsatadi.

“Vatan” sahifalarida mamlakatimizning barcha sohalardagi muvaffaqiyatlari, milliy qadriyatlarimiz, ilm-fan va madaniyat yangiliklari, qardosh xalqlar ziyolilarining fikr-mulohazalari hamda tarixiy manzaralar chuqur tahlil qilingan holda yoritilgan.

Nashrda Qudratilla Rafiqov, Rahmatilla Sheraliyev, Serik Belgibayev, Yuliy Yusupov, Tolibjon Nizom, Rustam Aziziy kabi o'z sohasining yetakchi mutaxassislar tomonidan siyosiy, tarixiy va ilmiy tahlillarga asoslangan maqolalar o'rin olgan. Ularning fikr-mulohazalari jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otmoqda.

Jurnal o'z oldiga yurtning ma'naviy va madaniy merosini targ'ib qilish, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi muhim voqealarni tahlil qilish, vatanparvarlik

g'oyalarni mustahkamlash va yosh avlod qalbida milliy g'urur hamda Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan.

“Vatan” bugungi axborot va ma'naviy targ'ibot makonida barcha sohalarni qamrab olgan holda mamlakatimizning ma'naviy taraqqiyotini atroflicha yoritib berayotgan muhim nashrga aylanib bormoqda.

Jurnal chet ellik mualliflarning fikr-mulohazalarini taqdim etib borishi bilan ham ahamiyatlidir. Ular yurtimizda kechayotgan jarayonlarga munosabat bildirib, xalqaro hamkorlik, o'zaro hamjihatlik va islohotlarga ochiq munosabat orqali jamoatchilik fikrini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Qisqacha aytganda, “Vatan” tarix va taraqqiyot o'rtasida mustahkam ko'priq vazifasini o'tayotgan, ma'naviy yetuklikka chorlovchi manbaga aylanib ulgurdi. Jurnalning joriy yildagi yangi sonida chop etilgan “Kutib ol, dunyo”, “Sadoqat, matonat va vafot timsoli”, “Vatan muhabbati ila yurtlar obod bo'lur”, “Turkiston qayg'usi”, “Markaziy Osiyo: kecha va bugun” kabi maqolalar bugungi kun shiddatini kechagi kun bilan uyg'unlashtirib aks ettiradi.


Yangi zamon nafasi ufurib turgan jurnalning yangi sonini kutib oling, muhtaram o'quvchi!

Zarnigor IBROHIMOVA

YANGI NASHR

Kuni kecha Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bo'lib o'tgan “Mahmudxo'ja Behbudiy ilmiy-adabiy merosini o'rganishning dolzarb masalalari” anjumani ochilishi arafasida oliygoh binosi hududida “Jadidlar – millat fidoyilari” deb nomlangan doimiy ko'rgazma ish boshladi. Ikkinchi muhim gap shuki, aynan anjuman dasturi doirasida adabiyotshunos Rustam Sharipov qalamiga mansub “Behbudiy dahosi” kitobi taqdimoti ham bo'lib o'tdi.

Jadidlar sardori tavalludining 150 yilligi munosabati bilan nashr bo'lgan mazkur kitobda muallif Mahmudxo'ja Behbudiyning siyosiy-huquqiy nuqtayi nazarini, teatr san'atida tutgan o'rni, maktab-maorif islohotlari yo'lidagi jonbozligi kabi qator masalalarni talqin etadi. To'g'risi, davr muammolarini hal qilishda o'zining adolatli fikrini ayta olgan



Behbudiyning maqolalari faqat maishiy doira bilan chegaralanib qolgan emas. O'z davrida Behbu-

diy bilimdon muftiy ulamo o'laroq milliy urf-odatlar, maktab islohoti, ta'lim-tarbiya masalalari ustida bosh qotirdi. Eng asosiysi, siyosiy arbob sifatida el-yurt kelajagini o'yladi.

“Behbudiy dahosi” kitobida ta'kidlanishicha, Behbudiy “1907-yilda Rossiya 3-Davlat Dumasi yig'ilishida ko'rib chiqish uchun “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi”ni tayyorlab” taqdim etadi. Kitob muallifi to'qqiz banddan iborat “Loyiha”ning har bir bandini sharhlar ekan, birinchidan, mustamlaka sharoitida yashagan mahalliy aholining huquqlariga, ikkinchidan, “Turkistondagi rus ma'muriyatining rahbarlik huquqlarini chegaralash” haqidagi mulohazalariga urg'u beradi.

Behbudiyning birinchi o'zbek dramasi “Padarkush”ni yozgani,

qator dramatik asarlarni Turkiston teatri sahnalarida namoyish etgani va bamisoli oyina bo'lgan shu vosita orqali Turkiston ahlini taraqqiyotga, ilm-ma'rifat hamda o'zlikni anglashga chorlagani to'g'risidagi fikr-mulohazalar ham adib dahosining muayyan bir qirrasini ko'rsatadi.

“Behbudiy dahosi” kitobidan ilova o'laroq taniqli amerikalik jadidshunos Edvard Olvortning aynan “Padarkush”ga bag'ishlangan “Birinchi o'zbek dramasi” nomli maqolasi ham o'rin olibdi.

Muhtaram o'quvchilar Behbudiy shaxsini, amaliy faoliyati hamda ijtimoiy-siyosiy qarashlarini teranroq anglashida Rustam Sharipovning mazkur kitobi o'z qiymatiga ega, albatta.

B.KARIM

JONBAXSH KUY ORZUSIDA



Shoir she'r yozmaydi, ko'ngil yozadi. Uning olamida:

“Boshdan oyog' ho'l bo'lgan daraxt

Novdasidan gul toshar bo'rtib.

Maysalarning ustidan oftob

Barmoqlarin olar yugurtib”.

Yana uning olamida “oy – siymtan”, “Yulduzlarning chanoqlari chaqilgan”, “Baxtning darvozasi gullar zangori”, “Quyosh qo'llarini o'pgan tunlarning Bag'rida qayg'ular yashamas, o'lgan...”

Chin shoirlar “Bir jonbaxsh kuy orzusida” “qamish poyasidan nay yasamoq” istaydi. “Va ilohiy borliq haqida xonish qilar oshiq hofizlar” kabi.

Shoir Avliyoxon Eshonning navbatdagi – “Ochun” kitobi “Muharri” nashriyoti tomonidan chop etilib, she'riyat shaydolari qo'lga yetib bordi. Kitobni mutolaa qilarsiz, muhtasham simfoniya tinglagan kabi huzur topasiz.

Bu she'riyat boshqalarnikiga o'xshamas, o'ziga xos. Zo'riqib topilgan tashbehlar, yasama o'xshatishlar, jimjima so'zlar ustoz tabiatiga ham, she'rilariga ham begona. Shundan har bir so'z, har misra kitobxonga tuyg'ular barobarida shoir shaxsini tanitadi, shundan misralar ichra biror begona satr topmaysiz.

“Tong olib keladi hovuchida baxt –

Har bitta yurakda eriyydi muzlar.

Umrda ilk marta gullagan daraxt

Shoxida yuzlarin yuvar yulduzlar”.

She'r shirasi uning tabiiyligida. Avliyoxon Eshon ijodi mubolag'asiz shirali, tabiiy. “Ochun” fikrimiz tasdig'i. Unda bir inson ruhining buyuk Robbisiga bandi sevgisi mujassam. Ishqi ilohiyga oshiq ko'ngilning havoda uchayotgan yaproq kabi manzur xiromi, mayin yog'ayotgan yomg'irday musallam qo'shig'i bor.

“Ulkan ko'zgu, soya bo'ldim,

Ochun yo'qdir – Ochun bor.

Dil ko'ziga toshlar otgan

O'z tanamda o'chim bor”, – deydi u.

“Ochun” – insoniy sevgining ham, rabboniy muhabbatning ham benazir tasvirlari. Ishonamiz, bu kitob javoningizda shunchaki qolib ketmaydi, qayta-qayta qo'lga olasiz, sog'inib-sog'inib o'qiyasiz. Adabiyot muhoblarga “Ochun” muborak bo'lsin! Zero, muallif yozganidek, “Shoirning she'r ichiga sochib yuborilgan asl tarjimaiy holini o'qish g'oyat maroqlidir”.

Muhayyo RUSTAM qizi

DARD YOMONI...

Boshlanishi 1-sahifada.

Do'xtirning aytishicha, bu dard bir necha omillar yordamida oyoqdan chalarkan. Avvalo, nasliy moyillik. “Sog'lik o'zingga kerak”, degan gaplar allaqachon bekor bo'ldi. Kishi tug'ilajak farzandlari uchun ham o'z salomatligiga mas'uldir.

Hayot davomida orttirilgan shikastlanishlar, asr vabosi sanalgan semizlik ham bir chetda qarab turmaydi. Ortiqcha yuklama har qanday mustahkam binoning darz ketishiga sabab bo'ladi axir. Keyingi paytlarda tez-tez quloqqa chalilib turadigan artrit ham shu ishga bosh suqqan. U nima ekan, deganlarga tushuntirish: tizzani moylab turadigan suyuqlikning yallig'lanish natijasida ortishi va sifati buzilishi. Tag'in metabolik kasalliklar – masalan, kalsiy yetishmasligi suyaklarda va tog'aylarda distrofik o'zgarishlarga olib keladi. Dehqoncha tushuntirganda kalla-poycha, ilik sho'rva, sut-qatiqdan bosh tortadigan kalondimog'larga qodir Xudoning bergan jazosi.

“Har tong dasturxonimda qaymoqdan tortib, shveytsariya pishlog'igacha muntazir, haftada ikki marta bilagimdan yo'g'on ilik qoqib yeyman, uyda pista-bodom uzilmaydi, lekin baribir suyaklarim mo'rt, bunisiga nima deysan”, deguvchilar diqqatiga! Stress va asab tarangligi – organizmda metabolik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Moddalar almashinuvi buzilgan tana esa shoshilinch tez yordam bo'limi yonidagi dorixonaga aylanadi qoladi. Shunday ekan anqoning urug'ini chet eldan keltirilgan baqlajon ikrasiga qo'shib, obi nonga surib yesangiz-da, qalban xotirjam bo'lmasangiz, yeganingiz ichga tushmaydi. Xullas, gap ko'p, ko'mir oz. Bu yog'ini do'xtir aka gapirsin:

“Koronavirus pandemiyasining asoratlari sababli ham bu kasallikka chalinish holatlari keskin ortib ketdi. O'shanda boshlangan noto'g'ri hayot tarzi, nazarimda, hamon davom etmoqda. Xalq orasida “Avvalqilar belidan qarir edi, hozirgilar – bo'ynidan” qabilidagi gap yuribdi. Rostdan ham, kun davomida yotganda, turganda, yurganda telefondan foydalangan avlod, tabiiyki, jismoniy chinqimagan bo'ladi va birgina qaltis harakat tayanch tizimida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ustiga ustak, aholi iste'mol qilayotgan mahsulotlarning aksar qismi notabiiy – sog'lik uchun koni zarar. Shuning uchun ham son suyagi boshchasi aseptik nekrozi, tizza sohasida qon aylanishining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan kasalliklar ko'paydi”.



“Dardini-ku bildik, davosi qanday bo'ladi?” deganimizda oq xalatlí najotkorimiz “Qaysi biridan boshlay?” degandek chuqur xo'rsinib qo'ydi. To'g'ri tashxis yarim davo hisoblanadi. Shunday ekan, bemorda aynan qaysi kasallik belgilari kuzatilayotganiga jiddiy e'tibor berish shart. Afsuski, oxirgi paytlarda o'zboshimchalik bilan, tashxis qo'ymasdan, hatto yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan tabiiyar yordamida asoslanmagan usullarda “davolash” holatlari tez-tez kuzatilyapti. Bu esa haqiqiy mutaxassis ishini yanada qiyinlashtiradi. Davolash uchun yeng shimarishdan avval o'zi qanday kasallik bilan kurashmoqchiligini bilmagan nodon qancha...

Gurung avjiga chiqayotganda do'xtirga telefon bo'ldi. Odob yuzasidan o'zimizni chetroq o'ldik. Sog' quloq o'lgur esa haligi muloqotni baribir eshitaverdi. Biroq aql hech nimani anglamadi. Chunki suhbat koreys tilida bo'ldi. Do'xtirimiz biroz avval xuddi shu telefon orqali kimdagi ingliz tilida bir nimalarni tushuntirayotgandi. Go'shakni qo'ygach, qabulidagi bemor bilan ruscha gaplashgandi. Eng qizig'i, har gapda tibbiy va ilmiy atamalar qatlam-qatlam. Buni do'xtir quyidagicha izohladi:

“Bugun nafaqat shifokor, balki jamiyatning har bir a'zosi zamon bilan hamnafas bo'lishi shart. Boshqa davlatda ishlayotgan kasbdoshlarning yutuq va kamchiliklari bilan to'g'ridan to'g'ri tanish bo'lmagan mutaxassis o'z sohasida oqashni aniqlaydi. Ayniqsa, tibbiyot sohasi vakillari dunyo olimlarining izlanishlari bilan tanishishga, olgan bilimlarini yurtdoshlariga o'rgatishga majbur. Bir necha tilni bilmasdan buni uddalab bo'lmaydi. Birgina misol, O'zbekistonda mashhur bo'lgan ko'pgina mutaxassislarni chet elga malaka oshirishga olib chiqqanmiz. Aksar qismi ingliz



yoki koreys tilini bilmagani sababli faqat ko'rganini yarim tushunib-tushunmay, operatsiya jarayonida berilgan ma'lumotlarni to'la o'zlashtirmay qaytgan. Shuncha vaqt, shuncha kuch sarflab, daryo yoniga borib, anglishvonada suv olib qaytayotgan yurtdoshlarimiz talaygina. O'zim ham farzandlarimga doim bir gapni takrorlayman: “Agar siz bitta xorijiy tilni bilsangiz, bir ko'zli bo'lasiz, agar ikki tilni bilsangiz, ikki ko'zli, agar umuman til bilmasangiz, demak, so'qirsiz...”

Otagizga rahmat, do'xtir! Haq gaplar! Modomiki, gap tib ilmi va til haqida ketayotgan ekan, biz hamisha ko'ragimizni kerib, ko'ksimizga urib maqtanadigan bobomiz – Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn Sino hazratlari ham bir necha tillarni bilgan va hatto tilshunoslikka oid asarlar yozgan. O'z davri uchun muhim hisoblangan fors, arab, yunon tillarini puxta o'zlashtirgan tabibga munosib voris bo'lish uchun dunyo bilan to'g'ridan to'g'ri muloqot qilish zarur. Qolaversa, asr boshidayoq Turkistonda jadidlik harakati asoschisi, millatparvar olim Mahmudxo'ja Behbudiy ham xalqimizga qarata “ikki emas, to'rt til lozim” deya xitob qilgan: “Dunyomizni ilm-u fanidan xabardor bo'lmoq uchun rus, nemis, fransaviy, anglis, italiyoli, arabiy, jopuniy tillaridan birini bilmok kerak...” Eng avvalo, o'z tilimizni mukammal bilishimiz shart. Shunda xorijiy tillarni o'rganishga ma'naviy haqqimiz bo'ladi. O'zbek tilini yaxshi bilmasdan boshqa tillarni zo'r bilaman, deyish ham xato.

Kamolxo'ja Eshnazarov har yili tibbiyot juda rivojlangan davlatlarga borib, yangi ma'lumotlar, tajriba, katta-kichik tibbiy uskunalar bilan qaytishga odatlangan. Ilmiy amaliyotlarni O'zbekistonda joriy qiladi. Masalan, bundan ikki yilcha oldin AQSH, Janubiy Koreya metodi bo'yicha tizza bo'g'imini endoprotezlash amaliyoti bajarilganda bemorlar bir necha oylab og'riq his qilardi. Qahramonimiz xorijda orttirgan tajribasiga tayangan holda perioperatsion davrda regional og'riqsizlantirish usullarini qo'llay boshladi. Natijada, bemorlar operatsiyadan keyingi birinchi uch kunda hech qanday og'riqsiz mashg'ul qiladigan va yurib ketadigan bo'ldi. Albatta, bu ilmlarni talabalar va hamkasblarga o'rgatish ham to'xtab qolgani yo'q. Bundan tashqari, har bir natija va kichik tajriba ham ilmiy ishning pishiq-puxta bo'lishiga yordam beradi. Shifokor o'z yutuq va kamchiliklarini muntazam tahlil qilib, yurtimizdagi tibbiy natijalarni xorijdagi xulosalar bilan solishtiradi. Mustaqil izlanishlar olib boradi, maqola va risolalar chop ettiradi.

“Eski metodlardan hech qachon foydalanmaslikka harakat qilamiz. Davolash bugunning uskunalari va kechaning tajribasi bilan amalga oshirilishi kerak. Kamroq jarohatlash, nerv to'qimalari, qon tomirlariga shikast yetkazmagan holda operatsiya qilishga e'tibor qaratyapmiz. Jarrohlik amaliyotidan keyingi tiklanish davri ham muhim. Oyoqqa turishgacha bo'lgan davrdagi muolajalar, erta reabilitatsiya va undan keyingi holatni ham nazoratda ushlash lozim. Masalan, bizda chanoq-son yoki tizza bo'g'imlarini endoprotezlash amaliyotidan keyin hali biror bemorimiz ikki kun yotib qolgani yo'q. Birinchi kundanoq mustaqil yuradi. Juda ko'p bemorlarimiz, deylik, ertalab operatsiya qilingan bo'lsa, kechga borib, o'zi mustaqil o'tirib ovqatlanadi”.

Yaqinda sakson olti yoshli bemor ayol Kamolxo'ja Eshnazarov qo'lida shifo topgani, oyoqqa turib ketgani haqida eshitgandik. Keksalikda inson tanasi ancha zaiflashib qoladi, suyaklar mo'rtlashadi, tiklanish jarayoni ham ancha sust kechadi. Jarayon va natija haqida shifokorning o'zidan so'radik.

“U kishi bizning hamkasbimiz. Oliy o'quv yurtlarida dars beradilar. Holatlari a'lo darajada. Ammo bu biz uchun yuqori cho'qqi emas. Biz Kattaqo'rg'on tumanida yashovchi urush qahramoni bo'lgan to'qson olti yoshli otaxonni ham operatsiya qilganmiz. Janubiy Koreyada esa bir yuz olti bahorni qarshi olgan insonning bo'g'imlarini almashtirganmiz. Bunday olganda odamlar yosharyapti. Endi sakson yoki to'qson yosh chegaraga emas”.

Zamonaviy shifokor qanday bo'lishi kerak, degan savolga jonli misol – Kamolxo'ja Eshnazarov. Ayrim shifokorlarimiz xorijga

tajriba orttirgani boradi, o'qiydi, izlanadi, yetuk mutaxassis bo'lganda o'sha yerda qolib ketadi. Ba'zilar qaytib kelgach atigi bir necha yil qandaydir yangilik qiladi va shu bilan o'sishdan to'xtaydi. Chunki u chetdagi hamkasblari bilan muloqotni uzgan va “tirikchilik” ko'lmagiga sho'ng'igan bo'ladi. Qahramonimizga Janubiy Koreya, Germaniya, Rossiya, Kanada kabi ko'plab davlatlardan goh tanish, goh notanish shifoxona rahbarlari, qisqasi kazo-kazolardan telefon, xat, e-mail orqali chorlov-takliflar kelib turadi. Hatto o'zga yurtlarda ayni damda faoliyat yuritayotgan hamkasblari yuqori daromadli ish o'rinlariga tavsiya qilgan holatlar ham ko'p bo'lgan. Lekin u O'zbekistonni tanladi. Chunki:

“Meni u yurtlar emas, O'zbekiston voyaga yetkazdi, butun avlod-ajdodim shu zaminda yashaydi. Ularning ham hayoti va sog'ligiga mas'ulman. Bolaligim shu yerda o'tgan. Menga hayot bergan, nafas bergan, non-tuz bergan zamindan qarzdorman. Buning haqqini ado etishim kerak. Ba'zan “Nega Janubiy Koreyaga borib dars berib kelyapsiz?” deyishadi. Axir, men u yerdan juda ko'p narsa o'rgandim. Ularga qarzni qaytarishim vijdonim oldidagi asosiy vazifalardan biridir. Ko'p maosh, osmono'par binolar yoki yuqori unvonlar emas, o'z sevgan kasbim bilan shug'ullanish, o'z xalqimga o'zgina bo'lsa-da nafim tegishi meni baxtli qiladi. Bugungi yosh tibbiyot xodimlarining qalbida mana shu tuyg'ular yashashini juda istayman”. Darvoqe, bugunning shifokori avvalo, vatanparvar bo'lishi kerak. O'zini shu millat kamoli, yurt ravnaqiga baxshida qilgan kishidan baxtliroq kishi bo'lmaydi. Shu bilan birga qahramonimiz aytganidek: “Shifokorning bir oyog'i o'z yurtida, bir oyog'i xorijiy davlatda, bir qo'li jarohlik stolda, bir qo'li ilmiy ish stolda bo'lishi shart. Chunki bu zamon talabi”.

Oramizda shunday jafokash insonlar ko'pligi quvonarli, albatta. Ammo bu fidoyilikka loyiq hurmat ko'rsata olyapmizmi? Yo'ldagi tirbandlik sabab kechikkan tez yordam xodimining yoqasidan olishga chog'langan yurtdoshlarimiz bu haqida o'yab ko'rganmi? So'nggi daqiqagacha bor imkoniyatlarini ishga solib, bemor hayotini saqlab qolishga intilgan, biroq qazoyi qadarga kuchi yetmagan najotkorlarni do'pposlaganlar qilmishidan hech uyalmaydimi?

Aslida shifokor bo'lish juda og'ir. Avvalo, inson bu sohaga butun umrini sarflashi kerak. Diplom olishgacha kamida o'n yil o'qiladi. Tajribali shifokor bo'lish uchun o'ttiz yil ketadi. Masalan, Janubiy Koreyada shifokorga jamiyatning eng ilg'or shaxsi sifatida qaralishi sir emas.

Achinarlisi, aholi orasida shifokorlarga bo'lgan ishonchning tushib ketishida ayrim “tadbiikor”larning ham hissasi bor. Bugun mo'may daromad topaman deb ikki dunyosi bir qadam bo'lib turgan bemorni aldab, bor-budini shilib olayotganlar, o'lim yoqasida turgan insonning og'ir vaziyatidan foydalanib, yaqinlariga keraksiz dorilarni pullayotganlar, o'zi to'la anglab yetmagan kasallikni davolash da'vosi bilan tuzatib bo'lmas xatoga yo'l qo'yayotganlar, afsuski, siz bilan biz yashayotgan zaminda kun ko'ryapti. Elim deb, xalqim deb yashayotgan, chet el farog'atidan kechib kelgan shifokorlar ana o'sha “shayton malaylari”ning kasriga qolmayaptimi? Bu haqda Kamolxo'ja Eshnazarov shunday deydi:

“Birinchidan, shifokorning ilmi qay darajada, degan savol yotadi. Bilmaganni bilmayman deyish kerak, vassalom. Ikkinchidan, o'sha mutaxassis o'z ilmini qay darajada amaliyotda qo'llay oladi? Ba'zilar bor, dunyo ilmlarini suv qilib ichgan, ammo ko'lga skalpel ushlamagan. Qolaversa, bo'lajak shifokorlarga tibbiyot tarixi, etikasi, deontologiyasi kabi fanlar o'qitiladi. Lekin tibbiyot xodimiga qo'yiladigan o'ziga yarasha talablari bo'ladi. Eng avvalo, bemor yoki uning yaqinlari bilan bo'ladigan muloqoti to'g'ri bo'lishi kerak. Chunki uning oldiga dardiga davo istaganlar keladi. Uning ongidagi “kinoteatr” kasallikkacha bo'lgan davrni ko'rsatishi lozim. Buning uchun bo'lajak shifokor badiiy adabiyotlar bilan ham yaxshigina tanish bo'lishi kerak. Masalan, biz bolaligimizda yuzlab roman, esse, drama o'qirdik. Bularning hammasi ongimizdagi “kinoteatr” imkoniyatini kengaytirish, bu orqali bemorlar holatini aniqlash, baholash, ularning yaqinlari bilan bo'ladigan muloqotda eng kerakli va o'rinni so'zlarni ishlatish, bemorni sabr bilan tinglash, uni tushuna olish uchun zarur bo'ladi”.

Yuqoridagi gaplardan so'ng xulosa qildik: demak, zamonaviy shifokor bo'lish uchun kishi, avvalo, halollik va vatanparvarlik vaksinasi bilan emlanishi zarur. Ma'naviy immuniteti mustahkam mutaxassis esa turli ko'ngilsizliklarga duch kelmaydi. Qayerda bo'lmasin, doimo jigarlari, millatdoshlarining sha'nini o'ylaydi. O'zidan ilmiy, vijdoniy shogirdlar qoldiradi. Insoniyatning ustoz bo'lgan kitobga tayanadigan, butun umrini o'zi tanlagan halol kasbga bag'ishlab, el-u yurt xizmatida bo'layotgan hoziq tabiblar ko'payaversin!

Shahriyor IBROHIM

BOQIY MEROS



“MENI HAMON O'QIRLAR VA UNUTMASLAR”

yoxud Asalat ayaning nurli xotiralari

Asalat aya – momom. Suhbattashib o'tirgan edik, quloq ilg'amas pichirlab “Abdulla Qodiriy. Julqunboy. “Mushtum”, dedilar.

- Nima-nima? Aya, nima dedingiz?
- Julqunboy.
- Kim haqda gapiryapsiz?

“...O'n ikki yoshlarda edim. Jamalaksoch, yerga ursa ko'kka sapchiydigan sho'x-shodon bola paytlarimiz. Chimkent shahrining Gulbog' degan joyida katta hovlimiz bo'lardi. Otam Komil boyvachcha Turdixojayev yurtning taniqli kishilaridan biri edi. O'zi qassob, o'sha davrda O'rusiyaning bir qancha shahar va viloyatlariga go'sht yetkazib berardi. Onam Zulfiyaxon aya ham qo'l-oyog'i chaqqon, sarishta, bola tarbiyasida muloyim ham talabchan, dono ayol edi.

Garchi otamiz kasbi, surati kitobdan yiroqdek, ammo siyrati, turgan-bitgani adabiyot edi. She'rga, mutolaaga zavqi baland bo'lgani sababidanmi, uyimizga mashhur shoir, yozuvchi – ziyolilar serqadam, tez-tez yig'ilib turishar, yozganlaridan parchalar aytishardi. Bola aqlimiz bilan mushoira kechalarining qiyamati uncha ilg'amasakda, qizg'in va samimiy suhbatlar, she'rlar ohangimi, so'zlar jarangimi, xullas, ko'ngilga xush yoqardi. Albatta, suhbatni eshik ortidan ko'zqirilib, qimtinib kuzatardik.

Shunday nafis yig'inlarda o'ta jiddiy, o'tkirsiz, kamtarin bir kishi unda-bunda ishtirok etardi. Keyin otamizdan bilsak, bu kishi Toshkentning Samarqand darvoza mahallasidan, “O'tkan kunlar”ni yozgan Abdulla Qodiriy ekanlar. El og'zida “Otabek va Kumush” bo'lib alqangan, qo'lma-qo'l o'qilgan bu asar bosmadan chiqqanida mahallada shov-shuv, muhokama kuchayib ketgan. Odamlar adibning Chimgentga kelishini, asar ne sabab bunday yakun topganini uning o'zidan so'rash-chun mush-toq kutishardi.

Biz esa roman syujetini, Kumushning zaharlanib hayotdan ko'z yumgani voqealarini kattalardan uzuq-yuluq eshitib (*chunki kitob hammada bo'lmas edi*), birini tushunsak, birini tushunmay yutoqib, jarayon rivojidan hayajonga tushardik.

Toshkentlik mehmonning tashrifi bizga yana shunisi bilan yoqardiki, ularga ergashib qizi Nazifa, o'g'li Habibulla ham kelardi. Bolalar birgalashib bog'da o'ynar, qo'shiq aytib, raqsga tushardik.

Otamiz Abdulla Qodiriy bilan yaqin do'st bo'lganidan hatto oiladagi beshinchi qiz – singlimizga Xatima ismini qo'yishni aytgan, xotima bo'lsin, keyingi farzandlaringiz o'g'li bo'lsin deb niyatlab.

Esimda, Abdulla Qodiriy biznikiga kelganida bog'imiz etagida o'tirib ijod qiladigan o'z joyi bo'lardi. Oyim bizziga tan-dirdan endigina uzilgan issiq non, somsalardan patnisga solib berar va yozuvchi amakimizga sekin eltishni tayinlardi. Tabiiyki, bunday “topshiriq”dan boshim osmonda, chopqillab borib, oldinlari faqat eshitganim, hamma diydorini ko'rishga intiq insonni yaqindan ko'rish asnosida qo'limdagi patnisni dasturxonga zumda qo'yib qaytardim. Onamiz “Shovqin solma, diqqatini bo'lma”, derdi-da nuql. Buyruqqa so'zsiz amal qilardim.

Otamizni adib bilan, ijoddan bo'sh paytlari, bog'da ko'p kuzatardik: ikkovlon olma-uzum shoxlarini butab, shiyponda qizg'in suhbat qurishardi. Yillar o'tib bildik, uyimizning eng qadrlí mehmoni, shunday samimiy inson turli bo'thon, tazyiq va ta'qiblar iskanjasida qolgan ekan. Keyinchalik uning otib o'tdirliganini eshitgach, ko'z o'ngimda issiq non ko'tarib, adibning oldiga borganlarim, ularning ijod og'ushidagi o'ychan, ulug'vor qiyofasi qayta gavdalanib, allanechuk

seskanib ketdim”.

“Otabek va Kumush” chiqqach, 1928-yili ulug' adib o'g'li Habibulla bilan kelgani, tongotar suhbatlarini ko'rgan momomiz Asalat ayaning deganlari shu. Alloh rahmatiga olgan bo'lsin, o'shanda momomiz to'qson yoshdan oshgan edi.

Yillar o'tib Qodiriy uy-muzeiga kelib, ko'plab qiziq, ham og'riqli ma'lumotlar bilan tanishdik. Adibning nevarasi Xondamir Qodiriy bilan samimiy suhbat qurdik. Yozuvchining mo'jaz ijodxonasi, elda “Julqunboy shiyponi” deb nom olgan imorat, oilaviy hujralarini tomosha qilarkanmiz, otamiz va ulug' adibning do'stligi haqida uzoq so'ylashdik.

U kishi o'z navbatida otasi Habibulla Qodiriydan olgan saboqlari, yorqin xotiralari haqida gapirarkan, o'ta-o'g'il (*Abdulla Qodiriy va Habibulla*) bir necha marta Chimgentga borganidan xabari borligini tasdiqlab, Asalat aya xotiralarining tarixiy qimmatga ega ekanini ta'kidlab o'tdi. Bu xotira, ma'lumotlar adib hayoti va ijodiga yangi qo'shimcha bo'lishidan mamnun so'zladi.

Binobarin, adib qamoqqa olingach, asarlarini “zararli” deb o'qish taqiqlangan, o'tda yoqilgan, kutubxonalardan yo'qotilgan. Kitobni ko'rpa tagida yashirib o'qiganlar bo'lgan. Kinningki qo'lida “O'tkan kunlar” ko'rib qolinsa, o'shaning oyog'ini yerga tekkiymay olib ketishgan.

1957-yil. Abdulla Qodiriy rasman oqlandi. Ammo uning otib tashlanganligi haqidagi ma'lumot (o'limidan so'ng oqlanganligi haqidagi kabi) uzoq yillar sir saqlandi.

Adolatni to'g'ri idrok etish uchun ham “moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlikdir”. Qodiriy naslining har bir a'zosi bu millat uchun sabr va saboq timsoliga aylangan. Adibning to'ng'ich o'g'li Habibulla qismati ham ana shunday og'ir voqealardan biri. “Xalq dushmani” tuhmati butun xonadonga soya solarkan, Habibulla Qodiriy ham “xalq dushmanining o'g'li” sifatida ayblanib, ko'plab so'roqlar, qiynog'-u azoblardan so'ng Sibirga surgun qilinadi...

Vaqt kelib Habibulla Qodiriy otasini otgan askar bilan yuzma-yuz keladi. Askarning xotirlashicha, Qodiriy so'nggi iltijo sifatida uning kamariga taqilgan flyagadagi suvni so'raydi. Askar rozi bo'ladi. Qodiriy suvni ichmaydi, o'sha bir kaft suv bilan tahorat oladi va ikki rakat nafi namozini o'qib, keyin qatлга tayyorligini aytadi.

Qotilning hikoyasiga ko'ra, Qodiriy o'limga tik borgan, yuragida qo'rquv bo'lmagan. Bu jasorat adibning har asar, har hikmatida, “Haqiqat yo'lida hech qanday jazodan, qiynoqdan qo'rqmayman” degan so'zlarida barhayot.

Bu – yozuvchi nainki asarlarida, balki xalq qalbida ham tirik ekanining yorqin isboti. 1991-yil Abdulla Qodiriyga “Mustaqillik” ordeni va Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi. Ta'lim muassasalari, madaniyat va istirohat bog'lari, metro bekatlari adib nomi bilan ataldi. Bu faqat nom berish emas, xalqning buyuk farzandiga ehtiromi, e'zoi, mehri ifodasidir. So'nggi yillarda esa Toshkent shahrida Abdulla Qodiriy uy-muzei, uning nomidagi ijod maktabi tashkil qilib, Adiblar xiyobonida muazzam haykali o'rnatilgan nur ustiga nur bo'ldi.

Qodiriy hayoti va merosi faqat tarix emas, bugunni, kelajakni to'g'ri yo'lga boshlaydigan ruhiy qudrat, deyishimiz mumkin. Uning asarlarini o'qish bu shunchaki kitobxonlik emas, balki mas'uliyat, vatan va xalq oldidagi burch hamdir. Adibning o'zi degandeki, “...meni hamon o'qirlar va unutmaslar”.

Muyassar MUXANOVA
Chimkent shahri



TAHLIL

QATTOL QIRG‘IN ASORATLARI

yoxud nega yuz millionlik nufusga yetmadik?

Ikkinchi jahon urushi yillarida endigina o'n yoshidan hatlagan qizaloq – onam kattalar qatorida kolxozda ishlashga majbur bo'lgan. Majbur qilingan. Onam rahmatli ko'p aytardi: "Och o'tiray-to'q o'tiray, sira urush bo'lmasin!"

Go'dakligidayoq jismiga singib ketgan urush vahmi onamni umri poyonigacha tark etmadi. Nogoh nevaralari tushirib qoldirgan non ushug'ini ko'rib qolsalar, darrov terib olib, peshonalariga surtib bosh chayqardilar: "Urush vaqti shugina ushogni topolmay ochlikdan shishib o'lganlar bo'ldi. To'qlik zamonamdan aylanay..."

Jahon tarixidagi eng so'nggi, eng ko'p qurbonlar berilgan Ikkinchi jahon urushidan bizni ko'p emas – atigi sakson yil ajratib turibdi. Shoir aytmoqchi "tarix uchun bu muddat qosh va kiprik orasi".

Keyinchalik aniqlashtirilgan ma'lumotlarga ko'ra, urushda 52 million kishi halok bo'lgani, sakson milliondan ortiq inson mayib-majruh qaytgani qayd etilgan. Halok bo'lganlar qabrini Moskvadan Berlin-u Yo'zoq Sharqgacha bo'lgan hududlarda o't-o'lan bosganiga sakson yildan oshdi.

Urush o'choqlaridan eng kami to'rt ming chaqirim masofada joylashgan qadim yurtimiz undan eng ko'p yo'qotishlar bilan chiqqani quyidagi raqamlarga ayon ko'rinadi: 1418 kun davom etgan Ikkinchi jahon urushi arafasida respublikamizda 6 million 551 ming kishi yashagan. Ulardan 1 million 951 ming 700 nafari urushga bevosita va bilvosita safarbar qilingan. Bevosita janggohlarda qatnashgan yurtdoshlarimizdan 530 ming kishi halok bo'lgan. Elik ming askar asir tushgan. 870 942 kishi mayib-majruh bo'lib qolgan (ma'lumotlar manbalarda har xil). 158 ming askarning taqdiri hali-hamon noma'lumligicha qolmoqda.

Nufusi yarim milliondan sal ko'proq bo'lgan Xorazm viloyatidan 131 600 kishi urushga safarbar qilingan va ularning uchdan ikkisi uyiga qaytmagan.

U paytda viloyatda oltita tuman bo'lib, ularning eng kattasi Hazorasp edi. Tumandan 20 821 g'o'r yigit urushga olib ketilgan. Yarim majruh holida bo'lsa-da, uyiga omon qaytganlar soni olti mingdan sal ortiq.

O'sha vaqtda Hazorasp tumani tarkibida bo'lgan elatimizda tashkil qilingan kolxozdagi 42 oiladan 22 nafar yigit urushga ketgan. Uyiga qaytganlar soni 7 nafar. Ulardan uch nafari qo'l yoki oyog'idan ajralgandi.

...Amakimiz Ro'zmat biyning ikki o'g'li – Rajabboy va Karimboyning jasadi janggohda qolgan. Bu amakirlarimiz urushga ketganlarida endigina 18 yoshga to'lishgandi.

Elatdagi kolxoz raisi, amakimiz Egamberdi Eshniyozov 1942-yilda urushga o'tlangan va Vlasov

armiyasida vzvod komandiri bo'lgan. Armiya qurshovda qolib, nemislarga asir tushganidan so'ng taqdiri nima kechgani noma'lum. Xayriyatki, amakimiz uylangan bo'lib, undan ikki o'g'il qolgandi.

Yoki shu kolxozda ombor mudiri bo'lib ishlagan Qo'chgor kulol uch norasida bolasini tashlab, urushga

o'ligi kelgan. Yosh o'smir Sibirning qora sovuq'ida o'pkasini sovuqqa oldirgan...

Elik yashar Rahmatullo amakimiz ishchi batalyoniga olib ketiladi va ikki yildan so'ng yarim nogiron bo'lib qaytadi. Bilagidan kuch, belidan quvvat ketgan ellik yashar inson Moskva yaqinidagi qurilishda kuniga 14 soat



otlanadi va Stalingrad ostonalarida tuproqqa ko'miladi...

Urush ortida ro'y bergan fojialar frontdagi kam bo'lmagan. Borini frontga yuborgan aholi ro'y bergan o'charchilik, turli yuqumli kasalliklardan qirilib bitgan. Qariyalar aytishardi: "Elatimizda "qoroqlar" degan qavm bor edi. Bu oilada qirg' kishi yashardi. Hammasi 1943-yil bahorida yurtga yopirilgan vabodan qirilib ketishdi, butun qavmdan bir tirik jon qolmadi".

Otam kolxozda traktorchi bo'lgani uchun urush boshlamasida "bron" bilan qoldirilgan bo'lalar-da, 1942-yil qishida frontda vaziyat og'irlashgan ortidan bir kunda urushga olib ketilgan. Urushni Berlinda tugatgan otam 1946-yil qaytib keladi va yarim xaroba uyini, ochlikdan o'lar holatga kelgan ukalarini ko'radi. Urush arafasida vafot etgan akalaridan yodgor qolgan o'smirni esa begona birov asrab olgan bo'ladi.

Otam aytardi: "Urushga ketgani-mizda elatdagi 42 imorat mo'rilaridan tutun chiqib turardi. Qaytib kelib ko'rdimki, to'rt yil oldin hayot qaynagan shu xonadonlarning yarmisi ham qolmabdi. To'rt yillik urush elatimizga o'nglab bo'lmas qirg'in solgan edi".

Sotvoldi kakir tog'amizning 16 yashar ukasi Ko'klam tog'amiz elatlik bir guruh tengqurlari bilan 1943-yilda Sibiridagi harbiy zavodlarda ishlash uchun olib ketilgan. O'sha vaqtda buni "FZU – fabrika-zavod boshqarmasi" deyishgan (qariyalar o'zaro gurunglarida "Falonchining mushtdek bolasi "pzu"ga ketib, qaytib kelmadi" deb xotirlashardi).

Ko'klam tog'amizning bir yildan so'ng

ishlashga majbur qilinadi. Amakimiz xotirlardi: "O'ramizda oltinchi yoshga yetganlar ham bor edi. Bechoralar ishlash u yodga tursin, belkurakka suyanib turishga-da yaramaydilar. Ammo zulm yomon – har kunlik ish normasi qat'i'y belgilangan. Normani bajarmasa, o'sha beradigan bir burda qora non ham yo'q. O'zim bilgan, qavmi-qarindoshlar boshiga tushganlaridan ayrimlarini esladim, xolos.

Urush davri musibatlarini yozaversak adogi yo'q. O'zim bilgan, qavmi-qarindoshlar boshiga tushganlaridan ayrimlarini esladim, xolos.

Xayolan hisob-kitob qilaman: yurtimizning juda kichik bir bo'g'ini bo'l'mish bizning "Mesit" elatimizdan 22 yigit urushga olinib, ulardan atigi 7 nafari qaytib kelgan; urushga ketgan va qaytmagan yigitlardan atigi uch nafari uylangan bo'lgan; taqdiriga jahannamdan omon chiqish nasib qilgan 7 nafar sobiq jangchi uylanib, ro'zg'or tutib, elatni qayta tiklashgan; bugun ularning avlodlari 165 oilaga yetib, aholi to'rt yuz nafardan ortiqni tashkil qiladi...

Endi tasavvur qiling, janggohlarda qolib ketgan 15 nafar yigitdan (ulardan uch nafari urushgacha uylanishgan, o'zlaridan zurriyot qoldirishgan) 12 nafari ham omon qolishganida... yo'q, o'sha la'nati urush degani ro'y bermaganida bugun elatimiz kamida uch yuz uylik, bir yarim ming nafarlik nufusga ega bo'lmasmide? Hech shubhasiz, shunday bo'lardi!

Tabiatda har bir jonzotda o'zidan nasl qoldirish majburiyati bor. Bu o'zgarmas qonuniyat. Afsuski, ayrim tadqiqotchilar urushga "insoniyatning

tabiiy tanlanish lahzasi" deya ta'rif berishadi. Ular nazdida Yer shari imkoniyatlaridan kelib chiqib, aholi sonini shu taxlit muvozanatda saqlab turish kerak emish. Naqadar noinsoniy, jirkanch falsafa!

Ikkinchi jahon urushigacha bo'lgan davrda dunyoda bir milliarddan ko'proq odam yashagan. O'tgan sakson yilda insoniyat 8 milliardlik marradan o'tdi. Bu har o'n yilda insoniyat bir milliardga ko'paymoqda degani.

Agarda o'sha la'nati urush bo'lma-ganida bugun dunyoda eng kamida yuz million O'ZBEK yashayotgan bo'lar va eng ko'psonli millatlardan biriga aylanardik. Yurtimiz hududi, tabiiy sharoiti, boyliklari, hosildor yerlari shu miqdor aholi to'kin-sochin yashashlarini ta'minlashga qodir (Aytarli yerosti boyligi bo'lmagan, ekin yer maydonlari bizdan deyarli besh marta kam bo'lgan Yaponiyada bugun 130 million aholi bor. Poytaxti Tokio aholisi soni respublikamiz aholisi sonidan ko'proq).

Moskvadan Berlingacha jang maydonlarini piyoda kechib o'tgan rahmatli otam lug'atida "urush" so'zi uchramasdi – yo'q edi. Otam o'zi, oilasi, qavmdoshlari boshiga tushgan bu kulfatni bir so'z bilan atardi – "qirg'in". Gohida urush davri xotiralarini gapirishga o'zlarida kuch topganlarida "Yurtga qirg'in keldi", "Odamlar qirilib ketishdi", "Uch yil qirg'inda yurdik", derdilar.

Ushbu maqolani yozishga muhtaram Prezidentimizning Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va ular-ga tenglashtirilgan frontorti ishtirokchilarini moddiy rag'batlantirish, "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani-ning 80 yilligi" esdalik yubiley medalini ta'sis etish to'g'risidagi Farmonlarida belgilab berilgan vazifalar, ya'ni qirg'inda halok bo'lganlarni xotirlash, shu jabhada qatnashgan va hali-hamon hayot bo'lgan insonlarga munosib ehtirom-e'zoz ko'rsatish borasida qilinadigan ishlar ko'lami sabab bo'ldi. Bizga o'sha olis vahshatli kunlar ishtirokchilari bo'lgan urush qatnashchilarining har biriga o'n ming AQSh dollari miqdorida mukofot berish, frontorti zahmatkashlarini ham munosib taqdirlash yurtimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatining timsoli!

...Va hozirda dunyoning bir qator davlatlarida yer, til, din talashish o'laroq kelib chiqqan va davom etayotgan urushlar oqibatida halok bo'layotgan, uysiz-boshpanasiz qolayotgan, nogiron-u notavon askarlar-u tinch aholi vakillari dard-foydolari yoyinlanayotgan lavhalariga ko'zim tushganida "Ey odamzod, qachon urush-u qirg'in so'zini lug'atingizdan o'chirasizlar!" deb hayqirgim keladi.

Ro'zimbay HASAN,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

BIR ASAR TARIXI

Adabiyot inson tafakkuri va qalbida kechmish ruhiy to'liqlar, zamon og'riqlarini ifoda eta oladigan kuchli vositadir. Ikkinchi jahon urushi o'zbek adabiyotida ham qalam ahlining ruhiy sinovlar oldidagi mavqeyini ko'rsatib berdi. Bu davrdagi asarlar nafaqat urushning o'zini, balki xalqning sabr-u matonati, fidokorona mehnati, orzu-umidlari, ajdodlarga sadoqat va istiqbolga ishonchini ham o'zida mujassam etdi. O'sha dahshatli yillarda xalq qalbidagi iztirobni, Vatanga muhabbat, fidoyilikni ifoda etgan va bugun ham qiymati-yu qimmatini yo'qotmagan ko'plab adabiy durdonalar yaratildi.

IGNA BILAN YOZILGAN ROMAN

Urushdan keyingi yillarda o'zbek adabiyoti safini to'ldirgan iste'dodli yozuvchilar ham ushbu mavzuda keng ko'lamda ijod qildilar. Ayni jarayonda bitilgan asarlar karvonida yozuvchi Valijon G'afurovning "Vafodor" romani o'zining munosib o'miga ega. Urushni o'z tanasida his etgan va front hayotini boshdan kechirib, so'ng ijodga kirib kelgan ijodkorning mazkur asari "Igna bilan yozilgan roman" sifatida nafaqat front haqiqatlarini, balki inson ruhiyatini badiiy tadqiq etgani bilan ajralib turadi.

1990-yili "Gulxan" jurnalida adabiy muharrir bo'lib ishlab yurganida, bosh muharririmiz Oydin Hojiyeva yozuvchi Vali G'afurov bilan suhbat tayyorlashni menga ishonib topshirdi. Aprel oyining boshlari edi. Zangiota (o'sha paytlari Kalinin) tumaniga izlab bordim. Ro'paramda katta hovli, saranjom, fayzli xonadon. Turli ekinlar qulf urgan tomorga, chiroyli qilib taralgan ishkam, poyida turfa gullar ochilib yotar, so'rida yozuvchimiz radio tinglab o'tirardi. Yangamiz dasturxon tuzar ekan, ora-sira suhbatga qo'shilib turardi.

Valijon G'afurov bilan muloqotdan ko'p lavhalar hamon esimda:

"1942-yili o'n to'qqiz yoshda frontga olinganman. Yigirma bir yoshimda ko'zlarimga mina oskolkalari jarohat yetkazgach, ko'rishdek katta ne'matdan ayrildim, ammo jonim omon qolganiga ko'p shukrlar qilganman.

Tug'ma ko'zi ojizlarga qaraganda mening holatim behroq edi. Zero, yorug' dunyo nima, ranglar qanaqa, gul nima, g'uncha nimaligi, kapalaklar qanday uchishi, tungi va kunduzgi osmon, urush va tinchlik qanday bo'lishi, go'zallik qanaqa bo'lishi haqida tasavvurlarim shakllanib ulgurandi. Ko'zim ochiqqligida yaxshi savodxon edim. Frontda ham ko'pchilikka maktub yozib bergan paytlarim bo'lgan. O'sha maktublar oxiriga ikki yoki to'rt qator she'r qo'shib qo'yardim. Ijodkorlik ruhimda mavjud edi.

Ko'rgan-kechirganlarimni qog'ozga to'kish istagi tinchlik bermasdi. Shu sababli menga ko'zi ojizlarning Brayl alifbosini o'rgatish uchun maxsus o'qituvchi dars bera boshladi. Bu alifboda harflar ikki xil – avval qog'ozga igna bilan teshiladigan nuqtalar yordamida teskari yozilib, keyin qog'oz o'nglanib, bo'rtib qolgan nuqtalar yordamida o'qilar ekan".

Ko'zi ojiz holatda ham qalam bilan do'st tutingan, adabiyotga beqiyos muhabbat tuyg'usi bilan yondashgan Valijon G'afurovning ijod yo'li beqiyos mehnat va sabr-matnat namunasi sifatida alohida e'tirofqa loyiq. Uning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish maqsadida Respublika

ko'zi ojizlar jamiyati tashabbusi bilan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga murojaat qilindi va bu sa'y-harakatlar besamar ketmadi. Valijon G'afurovga "Shinelli yillar" romani bilan tanilgan zabardast yozuvchi Shuhrat ustoz etib tayinlandi. Ustoz va shogird orasida to'rt yosh farq bo'lib, urushning og'ir azoblarini boshdan kechirgan bu ikki adibning xotiralarida, qalb iztiroblarida va ijodiy mushohadalarda uyg'unlik bor edi. Shu bois, ularning munosabati juda samarali va samimiy kechdi.

Yozuvchi Valijon G'afurov bilan gurgumizdan bir oy o'tar-o'tmay Shuhrat domla bilan suhbat uyushtiradigan bo'ldik. Domlanning g'ishtin hovlisida kechgan samimiy suhbatimiz Valijon G'afurov bilan o'tgan muloqotning mantiqiy davomidek tuyuldi: "Valijon "Vafodor"ni igna bilan yozishga kirishganida oilamizning a'zosi qatori bo'lib qolgandi. Unga xona ajratib bergandik, yozganlarini kirill alifbosiga o'g'irib, ustidan tahrir qilib chiqardim. Har bir tahrirdan keyin Valijon yangi sahifalarni yanada yuksak saviyada yozardi.

Romanning asosiy qismi mana shu hovlida qiyomiga yetdi. Bir marotaba yangi tashkil qilingan Do'rmon ijod uyiga ham borib ishlaganmiz. Bunday katta ishni bir hamlada bitkazish qiyin, boz ustiga o'zim ham ijod qilishim kerak edi. Valijon bir necha oyga yana uyiga, yoki sog'ligini mustahkamlash uchun tibbiy sihatgohlarga borib kelardi. 1958-yili "Vafodor" romani Brayl va kirill alifbolarida nashr etildi. Kechagi frontovik yigit endi katta adib sifatida dovruc taratdi!"

Romanning aynan "Vafodor" deb nomlanishi borasida mualifning o'zi shunday degandi: "Asar nomi bir qarashda urushdan ko'zi ojiz bo'lib qaytgan askarga nisbatan qo'llangandek tasavvur uyg'otsa-da, aslida, boshqa bir obraz – o'zbek xotin-qizlari xarakterini o'zida mujassam etgan xokisor qiz siyratini ochib beradi. Bu qiz askarlikka olingan yigitni suygani holda dil yorolmay, kuchi hamma qatori frontga kuzatib qolishga yetadi, xolos. Askardan oilasiga maktublar kelganida ular qatori quvonib, maktubni ovoz chiqarib o'qir, hatto javob xati ham yozib berardi. Bu ora askarning ota-onasi uni kelinlikka ko'zlab qo'yishadi. Frontdan so'qir qaytgan yigit qizga yuk bo'lmaslikni o'ylab, dastlab nikohdan voz kechadi ham. Ammo qiz ko'ngli, chin muhabbati oxir-oqibat baland kelib, bir umrlik yo'ldoshiga aylanadi. O'sha qiz... yangangiz bo'ladi".

Adib shularni aytarkan, hovlida kuymalanib yurgan ayoli qadamlarini shovqin oralab payqab, u tarafga qarab qo'yadi.

Oliyor BEGALIYEV

JAHON AYVONIDA

KANADA SOTILMAYDI

Kanada bosh vaziri Mark Karni parlament saylovlarida g'alaba qozonganidan keyin ilk bor Oq uyda AQSh prezidenti Donald Tramp bilan uchrashdi. Uchrashuv mamlakatlar o'rtasidagi savdo urushi va Trampning Kanada AQShning 51-shtati bo'lishi kerakligi haqidagi bayonotlari fonida bo'lib o'tdi. Bu haqda "New York Times" xabar berdi.



Jurnalistlarning Kanadaning AQShga qo'shilishiga jiddiy qarashi bilan bog'liq savoliga Tramp "ha" deb javob berdi, biroq buning amalga oshishi dargumonligini tan oldi. Kanada bosh vaziri bunga javoban diplomatik tarzda Tramp biznesdagi tajribasidan "hech qachon sotilmaydigan joylar borligini" bilishini aytdi, deb yozadi "CBC News".

"Men so'nggi oylarda saylovoldi kampaniyasi davomida

Kanada egalari (saylovchilar) bilan uchrashdim va shuni aytishim mumkinki, u hech qachon sotilmaydi", dedi Karni. "Hech qachon "Hech qachon" dema", deb javob berdi Tramp.

"Hech qachon, hech qachon, hech qachon, hech qachon, hech qachon", dedi kulib Karni.

YANGI NIZO O'CHOG'I

Kuni kecha Kashmirning Pokistondagi qismida ko'plab portlashlar sodir bo'ldi. Shundan so'ng Hindiston hukumati Pokistondagi, shuningdek, Kashmirning Pokiston qismidagi "terrorchilik" infratuzilmasiga hujum boshlaganini e'lon qildi.

Hindiston hukumati "Sindur operatsiyasi" doirasida to'qqizta obyektaga hujum qilganini bildirdi.

O'z navbatida, Pokiston harbiy-havo kuchlari va armiyasi Hindistonga javob zarbalari yo'lladi.




DISNEYLEND QURILADI

Disney kompaniyasi Yaqin Sharqdagi birinchi tematik bog'ini quradi. U BAA poytaxti Abu-Dabida ochildadi, deb xabar bermoqda kompaniya matbuot xizmati.

Qayd etilishicha, Disneylend Yas sun'iy orolidan joy oladi. Loyiha tafsilotlari oshkor etilmayapti. Disney faqat loyihani ishlab chiqishga taxminan ikki yil, bog'ni qurishga esa olti yilga yaqin vaqt ketishini ma'lum qilgan.



Hozirgi kunda dunyoda oltita "Disneylend" mavjud. Ular Kaliforniya, Florida, Tokio yaqinidagi Urayasu shahri, Shanxay, Hongkong va Parijda joylashgan.



MARSGA RAKETA UCHIRILADI

NASA yaqin yillar ichida Marsga raketa uchirish variantlarini ko'rib chiqmoqda. Bu haqda agentlik matbuot kotibi Betani Stivensga tayanib, "Politico" xabar berdi.

"Biz keyinchalik insonlarni Marsga qo'ndirish imkonini beradigan yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish uchun barcha imkoniyatlarni, jumladan, 2026 va 2028-yillardagi uchish rejasini xavfsizligini baholayapmiz", deydi Stivens.

Uning qayd etilishicha, 2026 va 2028-yillarda Yer va Mars bir-biriga juda qisqa masofada yaqinlashadi, bu esa parvozlarni amalga oshirish uchun juda ham qulay.

Agar NASAning yangi rejalarini amalga oshsa, bu Ilon Maskning SpaceX kompaniyasi uchun juda maqbul vaziyat yaratishi mumkin, chunki ushbu parvozlarni uchun aynan uning raketalaridan foydalanish ehtimoldan xoli emas.

ALUSHTADAN ESGAN YELLAR

Boshlanishi 1-sahifada.

Alushta deganlari Qrimdagi xushhavo bir go'zal shahar emish.

Boya aytdim-ku, yosh edik, dillarimizda zarra g'ubor yo'q edi, shuning uchun ertasi, indiniga terilgan paxtani xirmonga topshirib bo'lgach, butun qishloqni boshimizga ko'targuday bo'lib boyagi qo'shiqni kuylab kechki ovqat tortiladigan joyga marshdagi askarlar kabi borayotibmiz:

*“Alushtadan esken yeller yuzume urdi-i!
Botalig'im o'tken yerler yadima tushtuu-ur!”*

Bir-birimizdan oshirib, hayqirib aytamiz bu qo'shiqni!

To'rtinchi kuni quyosh botgan mahal, endi ovqatlanib bo'luvdik, uch qrimtatar oqsoqol salomlashib, biz o'tirgan xonaga kirib keldi. U yoq bu yoqdan gaplashib, tanishgan bo'lishdi. Bir piyoladan choy ichilgach, boyagi qo'shiqni qayerdan o'rganib olganimizni so'rashti. “E, biz uni o'rganganimizga endi uch kun bo'ldi, – deb xursand bo'lib chuvillashdik. – Anovi yigit bor-ku, Xallijon, o'sha o'rgatdi, zo'r bola ekan!”

Nimagadir, hammalarining yuzi burishib ketdi. “E, Xalil edimi sizlarga o'rgatgan? Tentak-ku, es-hushi joyida emas uning. Endi, ukalar, bu qo'shiqni unutinglar, hech joyda ayta ko'rmanglar. U taqiqlangan. Kimdir so'ra-sa-yu, sizlar shu qishloqda eshitganmiz desanglar, bizga yomon bo'ladi. U yog'ini o'zinglar tushunasizlar. Sizlardan iltimos...”

Hammamiz serrayib qoldik. O'sha onda yuraklarimizga tahlika tushdi. Qandaydir chaquv, ta'qib, imi-jimida ishdan bo'shatib yuborish kabi hollar bor edi-da. Hatto birga ishlab yurgan og'aynilarimizning hammasi ham chin do'stmi yo ayg'oqchimi, bilmas edik.

Mening yodimga lop etib o'tgan yili paxta terimda uchratganim bir rus kishisi keldi. U Bo'kaning “Ko'korol” sovxozidagi ovloq dala shiyponida yolg'iz o'zi yashar, hatto yaqin oradagi biron qishloqqa non yo qatiq olish uchun borib-kelishiga ham “ruxsat yo'q” ekan. Shuning uchun bola-chaqalari uning oldiga kelib, zarur narsalarni tashlab ketishardi. Ajabki, u nima gunohi uchun bunaqa jazoga tortilganini so'rash ham “mumkin emas” ekan. O'zi odamovi, hech kim bilan gaplashmaydi...

Boyagi chollar uzr so'rab, sipo chiqib ketishdi. Shu-shu, Xalijonni ko'rmadik. Bola bechora ta'zirini yegan ko'rinadi.

Munday fikr yuritsak, Sovet hokimiyatining tarixi – butun-butun ellarni o'z vatanidan haydash, surgun qilish tarixi ekan. O'zbekistonning o'ziga turli yillarda qrimtatarlar, mexseti turklari, greklar, koreyslar va boshqa ellar ommaviy ko'chirib keltirilgan. Ular dasht-sahro yoki muzloq biyobonlardan emas, jannatmonand go'shalaridan haydalgan. Bu xonadon egalarga hatto qatag'on nohaq bo'lgani e'tirof etilib, reabilitatsiya qilingan saksoninchi yillar oxirida ham o'z joylariga qaytishga ruxsat yo'q edi.

Bechora quvg'indi ellar it bog'lab qo'ysang turmaydigan ovloq yerlarga surgun qilingan. Uy-joy qayoqda? O'zlari kapa tikib, yerto'la kovlab, pashshaga qatlab, pashshaday qirilib kun ko'rishgan. Botqoqlarni quritib, sho'r yuvib, hosil olishgan. Biz ichimizdan chiqqan qatag'on qurbonlariga jonimiz achiydi, jallodlarni aslo kechira olmaymiz, ammo bularning fojiasi yanada dahshatli. Axir hamma – butun millat qatag'on qilingan!

Ikki grek chol bir zamon menga aytganlari yodimga tushadi: Qrimda yashaydigan greklar ham O'rta Osiyoga surgun etilgan. Maxsus idora vakillari va mahalliy hokimiyat arboblari



O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan greklarni o'shanda katta bir anjumanga to'plab, bizda grek tilli maktab ochish imkonini yo'q, xo'sh, bolalar qaysi tilda o'qiganini ma'qul bilasizlar, deb so'rabdi. Deportatsiya qilingan aholi ichida bir grek generali ham bo'lib, u odam, “Hamonki biz O'zbekistonga keldik, endi shu yerda yashaydigan bo'lsak, mayli, bolalarimiz o'zbek tilida ta'lim olishsin”, deb fikr bildiribdi.

“Generalimizni o'shandan keyin ko'rma-dik, – deyishdi biroz xavotirda boyagi ikki chol. – Grek bolalar esa ruscha maktabda o'qiydigan bo'lishdi...”

Bu yillarda o'zbeklarning katta bir qismi Ukrainaga surgun qilinib, o'sha yoqlarda paxta ekishga majburlangan, Sibirning hut-yut sovuqlarida diydiragan. Unga qadar esa – Qo'qon qirg'ini, “bosmachilikni tag-tubi bilan yo'qotish” kampaniyasi...

Qirg'izlar “inqilob tongi” otmay turib, 1916-yilning qahraton qishida ovullaridan quvg'in qilingan – konvoy yuz minglab qirg'izni Xitoy chegarasining nariyog'iga haydab o'tkazgan, yo'lda otib-chopib ketavergan, tirik yetib borganlari ochlik, yusizlik sababli yana qirilgan, xo'rangan. Hozir Chin yurtida yashayotgan bir hovuch qirg'izlar – o'sha sho'r'peshonalarning zurriyoti. Qirg'izistonga esa nemislar, qora-choylar, qalmoqlar, ingushlar, chechenlar, bolqorlar, qrimtatarlar surgun etilgan. Shu bahona, milliy avtonomiyalari ham tugatilgan.

Qozog'istonga haydalgan xalqlar miqdori undan ham ko'p.

Yana qaysi birini aytaylik?

Balki, Sho'ro davlati ana shunday qorish-tirishlar orqali “Yagona sovet xalqi”ni barpo etishni ko'zlagandir? Ammo... nimaning evaziga? O'limlar, azoblar, faryodlar, nohaq to'kilgan qonlar, uvol ketgan jonlar hisobigami?

Tarixing bitmoqqa, xalqim,

Mingta Firdavsiy kerak.

Chunki bir bor tortgan ohing

Mingta doston, o'zbekim, –

deb yozganida Erkin Vohidov qanchalar haq bo'lgan! Bu gap boshqa ellarning o'tmishiga ham bab-baravar taalluqli.

“APAQIY”

Ustoz tarjimon To'liqin Alimov rahmatli bir voqeani aytib bergandi. Parkent qishlog'iga urushning oxirrog'ida ko'p qrimtatarlar ko'chirib keltirilgan. Ular orasida bir juvon ham bor ekan. Hammaning ishini qilib yurar, shundan bir burda non toparkan. U barcha xotinlarga ma'yuslik bilan Apaqiyl (opajon) deb murojaat qilar, shuning

uchun oti ham Apaqiyl bo'lib ketgan ekan. Doim g'amgin, ko'zini yerdan uzmaydigan, sira kulmaydigan bu ayolni bir kuni To'liqin akaning onasi yoniga chaqirib, nasihat qilibdi:

– Apaqiyl qizim, – debdi. – Mana, erim urushda deyapsan. Ammo bir sening ering emas-ku urushga ketgan? Shu mahallamizning o'zidan yigirma nechtayam yigit frontda. Ko'pga kelgan to'y ekan-da, nima choramiz bor? Sen unaqa xafa bo'lavermay, o'ynab-kulib yursang bo'lmaydimi? Nega doim yig'laganing-yig'lagan? O'zingni qiynaysan?

– Ey-y, apaqiyl, – debdi boyagi qrimtatar juvon yana yig'lab. – Mening dardim boshqa, uni hech kim bilmaydi.

– Menga ayt, qizim, hasratingni, – debdi kampir. – Sal yengil tortarsan axir.

– Erim urushga ketganida qo'limda uch oylik bolam bor edi, – debdi Apaqiyl yana hiqillab yig'lab. – O'g'il bola edi. O'sha bilan ovunib yurgandim. Hovlimda bittagina g'ozim ham bor edi. Uyam menga o'rgangan, qayoqqa yursam, ortimdan ergashib yurardi. Bir kuni darvozamizni sharaqlatib ochib, uch harbiy kishi kirib keldi. “Bu yerga nemislar bostirib kelyapti. Hamma ko'chiriladi. To'rt soat muhlat. Bolangni, pasportingni, pulingni ol. Boshqa narsalaring qolsin. Hamma qrimtatarlar ko'chiriladi. Bu yerlarga endi qaytib kelmaysizlar. Bo'l, tayyorlan!” – deb buyruq berib chiqib ketishdi. Men bolamni yo'rgakladim, pasportimni, bor pulimni oldim. Qarasam, g'ozim menga hadeb ergashib yuribdi. Kel, dedim-da, birov bilmasin deb tumshug'ini ip bilan o'rab, oppoq yo'rgakka uni ham belab qo'ydim. Buyam bolam deyman so'rashsa, deb o'yladim. Ammo sal o'tmay, harbiylar yana yugurib kirib kelishdi. “Boyagi muhlat bekor bo'ldi, poyezd yarim soatda jiladi, chiq mashinaga!”, deyishdi. Butun qishloq olag'ovur. It egasini tanimaydi. Men yo'rgaklangan bolani oldim. Uyim bilan xayrlashdim. Poyezdga chiqarishdi, allaqayoqqa ketyapmiz. Oradan ikki-uch soat vaqt o'tsa ham, bola yig'lamay, ovozi chiqarmay ketyapti. Qorni ochmadimkin, deb yuzini munday ochib qarasam, voh, apaqiyl, vahimada bolamni uyda qoldirib, yo'rgaklangan g'ozni olib chiqqan ekanman! Dod-dod deb g'ozni vagon derazasidan otib yubordim, boshimni devorlarga urib baqirib yig'ladim, ammo ortga qaytishga yo'l yo'q. Go'dakkinam uy ayvonida qolavergan ekan! Men buning azobini qanday ko'tarib yurganimni bir o'zim bilaman...

– Onam ham qo'shilib yig'lagan edi o'shanda, – deb hikoyasini tugatdi To'liqin aka. – Nuqul muvaffaq bo'ladi. Shu ma'lumotlar asosida dushman ustiga hujum uyushtirilib, ular tor-mor qilinadi.

Otam Kursk yaqinidagi dahshatli janglarda, Dnepr daryosini kechib o'tishda ham ishtirok etgan. Yaqinlar to'kin-sochin dasturxon boshida yig'ilgan kezlirimizda u kishi ba'zan kutilmaganda hardamxayol bo'lib qolar, harchand sezdirmaslikka urinsa-da, allaqachon bizga yod bo'lgan manzaralar – bir necha kun yemaksiz qolib, ko'lmak suvlar ichganlari, o'qlar yomg'iri ostida daryodan kechib o'tganlari – urushning og'ir zahmatlari xayolida birma-bir jonlanayotgani shundoq ko'zlaridan bilinib turardi. Biroq padarimiz o'tkan kunlardan biror marta nolimas, bu bilan qanday yuksak matonat egasi ekanligini so'zsiz uqtirib qo'yardi.

Otamning o'zlari hadeb aytishga og'rinadigan, biz esa jon qulog'imiz bilan tinglaydigan bir hikoyasi bo'lardi. Bu – navbatdagi razvedka

voy bechora Apaqiyl qizim, ichingda shuncha darding bor edimi sening? – deb hiqillaganlari yodimda...

Tug'ilib o'sgan yurtidan haydalsa, uy-joylari zo'rlik bilan tortib olinsa, urushni g'alaba bilan tugatgan askarlar ham eli surgun bo'lgan joylarga jo'natilsa!

Hattoki g'urbatda kun ko'rayotgan bu xalqqa vatani haqida ashula aytish ham man qilinsa! Zulmning bular ko'rmagan yana qaysi xili qoldi ekan?

“BIZNING KO'CHA, BIZNING UY!”

To'liqin aka bir umr nashriyotda ishlab, ko'p adiblar bilan hamsuhbat bo'lgan, goho ulardan eshitgan g'alati voqealarni hikoya qilib berar edi. Hozir ismi yodimdan chiqibdi, to'qsoninchi yillar boshida Qrimga borishga ruxsat tegib, bir qrimtatar adibi opasi bilan o'zlari tug'ilgan shaharga borishibdi. Go'dak chog'ida ota-onalari bilan O'zbekistonga kelib qolishgan-da. So'rab-so'rab, o'zlari yashagan ko'chani topishibdi. Qarashsa, tanish mahalla! Yurib-yurib, o'z xonadonlari oldiga yetishibdi. O'sha uy, o'sha darvoza hali ham turibdi! Yuraklari hapriqib ketibdi. Qarang, qirg besh yil avvalgi o'z uylari! Opa-uka o'z uylariga kira olmay, hatto darvoza taqillatishga ham jur'at qilmay, u yoqqa o'tishibdi, bu yoqqa o'tishibdi. Bola chog'laridagi xotiralar quyunday yopirilib, yuraklari entikibdi.

Bir mahal darvoza ochilib, bir notanish kishi chiqib kelibdi.

– Qarasam, shu atrofda ko'p aylanyapsizlar. Kimsizlar, nima ish bilan bu yerda yuribsizlar?

Opa-uka o'zlarini tanitib, O'zbekistondan kelishganini, ellik yil avval shu uyda tug'ilib o'sganlarini aytishibdi.

Boyagi kishi darvozani ochib, ularni ichkariga taklif qilibdi. Uy ham o'sha-o'sha, bular chiqib-tushib yurgan tokchalar, bekinmachoq o'ynagan burchaklar... bari boyagiday turgan ekan! Bir yig'lab, bir kulib, uynung yangi egasiga bu haqda so'zlab berishibdi. U goh achinib, goh kulib eshitibdi, qachon kelsanglar, darvoza ochiq, marhamat, debdi. Bir-birini to'g'ri tushunib, xayrlashishibdi.

Albatta, bu uy, bu ko'chalarning egalari endi boshqa. Qrimtatarlar vatanlariga keyin ko'chib borishdi ham. Bunga “ijozat” tegdi. Ammo chikik vatan – o'zlari tug'ilgan, kindik qoni tomgan, unib-o'sgan, ota-bobolari loy changallab qurgan uylariga ega bo'lisha olmadi...

Ammo nima bo'lganda ham, ota yurtga borish nasib etdi-ku!

Shuning uchun bu jafodiydalar qirg yil mobaynida bino etgan, obod qilgan uy-joylarini arzonog'arv sotib, yana vatanga oshiqdilar. Qanotlari bo'lsa, qushday uchib borishga tayyor edilar o'sha Alushtaday go'zal ma'volarga. Endi tinch yasharmiz, dunyodan bearmon o'tarmiz, deb intiq bo'ldilar.

Tinch yashayaptlarmikin, kunlarini bearmon o'tkazyaptlarmikin ular?

Nevlay...

Yillar o'tib, sochga qirov qo'ngan mahal odam yosh keqidagi ne bir voqealarni yana yodga olarkan, o'sha go'shqin yillarda uncha e'tibor qilmagan qay bir narsalar mag'zini chaqib, yangicha xulosalarga kelarkan.

Chinoz tomonlarda paxta terganimizga hozir salkam ellik yil bo'lyapti. Goho, qayerlarda ekan boyagi Xalil, omon bormikin, deb eslab qolaman. Sodda, anoyi Xaliljon! Tirikmisan, oshna, tirik bo'lsang, qaylardasan?

Qayda bo'lsang ham, omon bo'l, el-yurting omon bo'lsin...

Zuhriddin ISOMIDDINOV

XOTIRA AZIZ



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Ahmadbek hoji Temirbekov – Andijon shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. Bir necha zavod va yer maydonlariga egalik qilgan. U jadidlik harakatining eng fidoyi homiyilaridan biri edi. Sovet hokimiyati organlari ta'qib va tazyiqi tufayli 1918-yili butun mol-mulki, uy-joylarini tashlab Qoshg'arga muhojir bo'lib chiqib ketishga majbur bo'lgan.

Mirkomilboy Mo'minboyev – 1862-yili Andijon shahrida tug'ilgan. U katta yer egasi, tadbirkor, yirik sarmoyador, jadidlik harakatining xayrixohlaridan biri bo'lgan. 1918-yil fevral oyi oxirida Andijonga kelgan Turkiston sovet respublikasi xalq komissarlari soveti raisi F.A.Kolesov buyrug'i bilan Mirkomilboy Mo'minboyev otuvga hukm etilgan. Hukm zudlik bilan amalga oshirilgan.

Qalandar Devonaboyev – 1890-yili Andijon shahrida tug'ilgan. Millati o'zbek. “Milliy ittihad” tashkilotining a'zosi bo'lgan. Andijondagi musulmon kommunistlariga yetakchilik qilgan. 1918-yildan sovet idora-larida rahbarlik lavozimlarida ishlagan. 1920-yil 10–23-mayda Andijonda Markaz-dan kelgan “Qizil Sharq” nomli targ'ibot poyezdi xodimlari tomonidan hibsga olingan. 1921-yili aksilinqilobiy harakatda ayblanib, sud-so'roqsiz otib tashlangan.

Soli Qosimov – 1903-yili Shahrixonda tug'ilgan. Arxiv hujjatlariga ko'ra, u “Sho'royi Islom” tashkilotining faol a'zosi bo'lgan va shu sabab sudlangan. 1929-yili millatchi tashkilotdagi ishtiroki uchun VKP(b)dan o'chirilgan. Soxta ayblovlar bilan qamoqqa olingan vaqtda xizmatchi bo'lgan. Noqonuniy yig'inlarda ishtirok etganlikda, hukumat va partiya tadbirlariga qarshi aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda ayblanib, O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1938-yil 13-fevraldagi yig'ilishi qarori bilan otuvga hukm qilingan.

Mulla Mirzahakim Mahaminxo'jayev – 1895-yili Andijon shahri Birlik dahasida tug'ilgan. Millati o'zbek. U oliy ma'lumot-li mutaxassis edi. Hibsga olingunga qadar diniy xizmatchi bo'lib ishlagan. Aksilinqilobiy tashkilot ishtirokchisi sifa-tida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qo'zg'olonda ishtirok etganlikda, “Milliy ittihad”ning Andijon filiali raisi sifatida bosmachi xodimlar tayyorlash masalasi bilan shug'ullanganlikda, kolxozga qarshi buzg'unchilik targ'iboti olib borganlikda ayblanib, O'zSSR Ichki ishlar xalq komis-sarligining 1937-yil 13-sentyabrda yig'i-lishi qarori bilan otuvga hukm etilgan.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor
Nigoraxon AKBAROVA,
tdqiqotchi

(Davomi kelgusi sonda).

MATONAT

9-may – Xotira va qadrlash kuni nafaqat tarixni yodga olish, balki yurtga muhabbat, sadoqat, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ularini qalbimizda uyg'otadigan muqaddas sana hisoblanadi. Bu kuni biz fashizmga qarshi kurashda mardlik va jasorat namunasini ko'rsatgan buyuk ajdodlarimizni chuqur ehtirom bilan yodga olamiz. G'alabaga o'z joni, mehnati va sabr-u matonat bilan ulkan hissa qo'shgan millionlab yurtdoshlarimiz – urush va mehnat fronti faxriylarini alohida ehtirom bilan sharaflaymiz.

Bu kun – kelajak avlod qalbiga milliy iftixor, vatanga muhabbat va jasorat ruhini singdirish, fidoyilik saboqlarini o'rgatish, o'rganish pallasini ham. Men esa shu muqaddas kunlarda otam – Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Xalil Yo'ldoshevning fidokorona hayoti va mardonavor xizmatlarini yuksak faxr va g'urur bilan xotirlar ekanman, ularning hayoti orqali nafaqat bir oila, balki



butun avlod qanday jasorat, sabr va sadoqat bilan yashaganini his qilaman.

Otam urush boshlanganidayoq janggohga yo'l olgan. U kishi frontda radist, aloqachi va razvedkachi

sifatida xizmat qilgan. Gvardiya starshinasi unvonini olgach, 7-alohida gvardiya aloqa rotasiga telefon bo'limi komandiri etib tayinlangan.

Jang maydonida otam hayotini ko'p bor xavf ostiga qo'ygan. Esim-da, u kishi bizga Belarusning Nikola-yevka qishlog'i yaqinidagi jang haqida hikoya qilar ekan, har gal ko'zlarida yosh qalqirdi. Artilleriya otishmalari vaqtida shtab bilan aloqa uzilib qolganida simlarni 18 marta ulab, diviziya shtabini polk komandiri bilan uzluksiz muloqotda ushlab turgani haqida faxr bilan gapirardi.

Otam yana bir voqeani quvonch va iztirob aralash so'zlab bergan. Fashistlarning joylashuvini aniqlash uchun yuborilgan guruh tarkibida bo'lgan otam front chizig'ini kesib o'tib, razvedka ishlarini olib boradi. Safdoshlarining ko'pchiligi daydi o'qdan qirilib ketadi, otam esa yarador holida uzoq yo'l bosib, o'ta muhim ma'lumotni komandirga yetkazishga

muvaffaq bo'ladi. Shu ma'lumotlar asosida dushman ustiga hujum uyushtirilib, ular tor-mor qilinadi.

Otam Kursk yaqinidagi dahshatli janglarda, Dnepr daryosini kechib o'tishda ham ishtirok etgan. Yaqinlar to'kin-sochin dasturxon boshida yig'ilgan kezlirimizda u kishi ba'zan kutilmaganda hardamxayol bo'lib qolar, harchand sezdirmaslikka urinsa-da, allaqachon bizga yod bo'lgan manzaralar – bir necha kun yemaksiz qolib, ko'lmak suvlar ichganlari, o'qlar yomg'iri ostida daryodan kechib o'tganlari – urushning og'ir zahmatlari xayolida birma-bir jonlanayotgani shundoq ko'zlaridan bilinib turardi. Biroq padarimiz o'tkan kunlardan biror marta nolimas, bu bilan qanday yuksak matonat egasi ekanligini so'zsiz uqtirib qo'yardi.

Otamning o'zlari hadeb aytishga og'rinadigan, biz esa jon qulog'imiz bilan tinglaydigan bir hikoyasi bo'lardi. Bu – navbatdagi razvedka

vaqtida otamning oldida dushman snaryadi portlab, bir chekkaga uloq-tirib yuborgani va buning oqibatida u kishining og'ir jarohat olishi bilan bog'liq voqea edi.

Shundan so'ng, 1944-yili otamiz Toshkentga qaytib, uzoq vaqt gosptaldal davolanadi. Janggohda ko'rsatgan mardonavor xizmatlari uchun ko'ksi shoda-shoda orden-u medallarga to'ladi. Xonasiga tuyqus kirib qolsak, ba'zan u kishini o'ziga tegishli “Jasorati uchun” medaliga termilib o'tirgan holda uchratardik. O'shanda yoniga imlab, boshimizdan silab: “Urush dahshatini biz ko'rdik, sizlar ko'rmang. Urush siz televizorda ko'rgan paxtavon otishma-yu paqil-loq shovqini emas”, deb chuqur xo'rsinardi. Yurakni ezadigan og'ir sukunat zamirida urushning neki dahshati – jondo'stdan ayrilish, qoraxatlar, onalar faryodi, ko'zlari oldida yiqilayotgan do'stga yordam berolmaslik azobi, yetimlik anduhini... his qilardik. So'ng “Bugun osmon

tinch, dasturxon to'kin, bolalar mak-tabda o'ynab-kulib o'qiyapti – eng katta g'alaba, eng buyuk ne'mat shu – xalqning erki, ozodligi”, deya sukunatni kesib, chiroyi yorishardi. Ana shu yuz-ko'zlarda tinchlik hik-matini ro'y-rost o'qirdik.

Har yili Xotira va qadrlash kuni arafasida oilamiz a'zolari jam bo'lib, poytaxtimizdagi “Minor” qabristoniga yo'l olamiz. Ota-onamizning qabrini ziyorat qilib, ularning ruhiga atab Qur'on tilovat qilamiz. Ilohim, o'tgan ajdodlarimiz – Xalil otamiz va Umrinis onamizning, urush va urush oqibati qurbonlarining ruhlari shod, oxiratlari obod bo'lsin.

Keksalar duolarida niyat qilga-nidek, xalqimiz hech qachon urush nimaligini bilmasin. Iloho, yoshlarimiz tinchlik va farovonlik, mustaqillik va erkinlik nashidasini bilsin-u, shukro-nasini qilsin.

Guljamil A'ZAMXO'JAYEVA,
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi a'lochisi



QADRIYAT

Baxshilik – ruhiyat. Baxshilik – millat qalbidagi botirlik, elga sadoqat tarannumi. **Baxshilik** – tirik tarix, benazir san'at. Baxshi esa elning shonli o'tmishini jonli kuylab qonda jur'at, shijoatni uyg'otuvchi, ertangi kunga yuksak umid bag'ishlovchi ma'naviy posbondir.

So'lim Parkent tumanida joylashgan Parkent ijod uyida O'zbekiston xalq baxshisi, xalq og'zaki ijodi an'alarini munosib davom ettirib kelayotgan betakror ijodkor, mahoratli ustoz Baxshiquil Tog'ayev tavalludining 65 yilligiga bag'ishlab "Baxshili el – botir el" mavzusida tashkil etilgan xalqaro baxshilar qurultoyi ham ana shu hikmatga hamohang tarzda o'tdi..



FESTIVAL

BOR BO'L, QOZOQ BOVURIM!

Olmaota shahrida bo'lib o'tgan X Xalqaro she'riyat va musiqa festivali turkiy tilli mamlakatlar adabiyot va san'at sohasi vakillarini o'z bag'riga chorladi.

Bu galgi festival tashkilotchilari Turkiyaning Chukurova adabiy uyushmasi, Qozog'istonning "Muqali" xalqaro xayriya fondi va "AR" nashriyot uyi bo'ldi.



Festivalda Turkiya, Ozarbayjon, Qirg'iziston, O'zbekiston, Turkmaniston, Tatariston, Boshqirdiston, Sharqiy Turkiston (XXR), Mo'g'uliston, Mojariston, Qorachoy, Dog'iston, Oltoy, Yoqutiston, shuningdek, Iroq delegatsiyalari ishtiroki ko'zda tutilganining o'zi ham uning miqyosini ko'rsatib turibdi.

Festivalning rasmiy ochilishi o'zgaracha bir shukuh va tantanavorlik kasb etdi. Mezbon qardoshlarimiz milliy kuy va qo'shiqlar ohangi jo'rligida bizni Qozog'iston Milliy kutubxonasida kutib oldi.

So'zga chiqqan har bir yurt vakili festival ishtirokchilarini o'z ona tilida qutlar ekan, turkiy birligimiz, yakdilligimiz, kelgusida adabiyotimiz xazinasini boyitmoq, o'zaro do'stligimizni mustahkamlamoq yo'lida hamkorlikda amalga oshirmog'imiz lozim bo'lgan rejalariga to'xtaldi.

Festival kunlarida biz qozoq xalqining taniqli san'at ustalari ishtirokidagi konsertdan bahramand bo'ldik, xalq cholg'u sozlari muzeyini borib ko'rdik. Tadbir tashkil etilgan Qozog'iston Milliy kutubxonasidagi nodir kitoblar jamlanmasi bilan tanishib ma'naviy boyidik, o'zimiz uchun katta ilmiy manba oldik.

Ma'lumki, Abay Qo'nanboyev qozoq adabiyoti va qozoq tiliga asos solgan buyuk oqin. Shoirning she'r-u dostonlari, nasriy asarlari, tarjimalari qozoq xalqining milliy-ma'naviy iftixori sanaladi. Abay xalqlarni do'stlik va birodarlikka, hamjihatlikka chaqirgan, tinchlik va osoyishtalikni, mehr-muhabbatni ulug'lagan.

Festival davomida Abay tavalludining 180 yilligi ham keng nishonlandi. Xususan, qozoq adabiyoti va san'atining atqoli namoyandalari, olimlari ishtirokida uchrashuvlar o'tkazildi. Unda turk, o'zbek, qirg'iz, ozar ijodkorlari ham o'z ijod namunalari bilan ishtirok etdi.

Quvonarli holat shuki: bizga tarjimonning keragi bo'lmadi. Turkiy yurak bilan bir-birimizni angladik, turkiy

ohanglar jon tomirlarimizgacha yetib bordi, turkiy birligimiz yo'lida, kichik bo'lsa-da, yana bir qadam qo'ydik.

Adabiy tadbirlarning birida ismi menga yaqin tuyulgan asl ozar farzandi bo'lgan Navoiy Metin (Nevai Metin) bilan suhbatlashganimda u shunday fikrlarni aytdi: "O'tamning ulug' shoir Mir Alisher Navoiy hazratlarining ijodiga muhabbati baland bo'lib, havas ila menga Navoiy deya ism qo'ygan. Mening ham o'zbek she'riyatiga, adabiyotiga mehrim cheksiz. Mumtoz adabiyotingizdan boshlab, Abdulla Orif, Erkin Vohidov va bugungi kun o'zbek ijodkorlarigacha sevib mutolaa qilaman. Bugun ularning ko'pi bilan do'st-u qadrdon, og'a-inimiz. Aslida ham biz turkiy tilli millatlar qadimdan bir xalqmiz. Tariximiz, tilimiz, urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz uyg'un. Bizni birlashtiradigan ana shu jihatlarni yanada yaqinlashtirib, kamol toptirmog'imiz, yelkama-yelka turib, bir-birimizni qo'llab-quvvatlamog'imiz lozim".

Olmaotaning diqqatga sazovor joylarini ziyorat qilarkanman, go'zal va maftunkor tabiatga aholining munosabatiga havas qildim. Ko'chalar ravon, nihoyatda ozoda, e'tiborsiz qoldirilgan hududni ko'rmaysiz. Biz qardoshlarimizdan bu jihatdan o'rnak olsak arziydi.

Bugungi alg'ov-dalg'ov, taloto'p dunyoda atrofga boqib, ilkingni mustahkam tutguvchi bir do'st qidirasan. Ayni shu dildoshni qadim ildizlaring, daryolaring tutash, tomiringdagi qoning bir bo'lgan qondoshing, qardoshing, bovrining timsolida ko'rish odamga behad kuch va quvonch bag'ishlaydi. Adabiyot, she'riyat, san'at esa o'z o'rnida xalqlarimiz o'rtasidagi azaliy va adabiy do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlash yo'lida kamarbasta bo'lib xizmat qiladi.

Zilola XO'JANIYOZOVA,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

BAXSHILI EL – BOTIR EL

"Alpomish media" hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida uyushirilgan tadbirda nafaqat yurtimiz baxshilari, Yoqutiston, Qirg'iziston, Tatariston, Qozog'iston, Turkmanistondan kelgan baxshilar, oqinlar, manaschilar, jirov va hofizlar qatnashdi.

Yoqutistonlik Aksinya Stepanova ijro etgan "Olonxo" (yoqut tilida "doston") qish izg'irida panoh izlagan

ohang bilan ildizga qaytaradi, bizda o'zlikni uyg'otadi. Baxshi shunisi bilan ham xalqqa yaqin.

O'zimizning iste'dodli baxshilardan Safar baxshi Shaydillov, Panji baxshi Do'stmurodov, Farrux baxshi Nuraliyev va boshqalar ijrosidagi termayu dostonlar tomoshabinlar qalbiga bu ilhombaxsh san'at zavqini shavqini yanayam ko'proq ulashdi. Baxshilar turkiy

bo'y-bastini ro'y-rost ko'rsatadi. Bu esa xalq og'zaki ijodi ilmiy jihatdan izchil tadqiq etilishi kerak bo'lgan boy manba ekanini yana bir bor namoyon etadi.

Anjumanning ilmiy-adabiy qimmatini yozuvchi, shoir va sohada faoliyat olib borayotgan folklorshunos olimlar yanada oshirdilar. Filologiya fanlari doktori, professor Shomirza Turdimov, Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rinbosari G'ayrat Majid, yozuvchi Nor-murod Norqobilov o'z chiqishlarida baxshilikning xalq ma'naviyatidagi o'рни va ilmiy izlanishlar uchun yangi yo'nalishlar ochayotganini ta'kidlab o'tdi.

Ijtimoiy tarmoqlarda ham ushbu tadbir olqishlab kutib olindi. Ko'pchilik bu ajunmunda xalq madaniyatining noyob jihatlari namoyon bo'lganini, baxshilik madaniy meros sifatida ajdoddan avlodga boyib, jilolanib o'tib kelayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Qurultoy nafaqat san'at bayrami, balki turkiy xalqlarning ma'naviy va madaniy hamkorligini mustahkamlovchi mulqot maydoniga aylandi. Yakunda ishtirokchilarga homiy-lar tomonidan sertifikat va esdalik sovg'alari topshirildi.

Darhaqiqat, baxshilik Vatan va xalq muhabbati bilan yo'g'rilgan ruhiy tarbiya maktabidir. Bu san'at xalqlarning milliy o'zligi, ma'naviy qudratining yaqqol ifodasi. Ana shunday ulug'vor san'at nurlariga to'yinib ulg'aygan avlod yengilmas, botir bo'lajak.

Sanobar MEHMON



tabiat va jamiki jonzotning Yaratguvchiga nolasidek eshitiladi. Oltoy o'lkasidan kelgan baxshi ayolning hazin va samimiy ohangi esa go'yo sharqiroq soylar bilan tillashuvga o'xshaydi. Uning sas-sadolari qalblarga qadim Enasoy daryosi sohillarida yashagan ajdoddardan mak-tubday eshitiladi. Chinakam baxshilik ham shu aslida: bizni

xalqlar etnomadaniy merosining noyob durdona asarlari sirasiga kiruvchi qahramonlik dostonlari, aytishuvlardan namunalar ijro etdi.

Baxshilikning o'ziga xos jihati shundaki, u nafaqat san'at, balki tarixiy xotira va falsafiy teranlikni ham o'z ichiga oladi. Baxshilar ijrosida ko'hna tarix, qahramonlik, muhabbat, vafo, fidokorlik kabiinja mavzular

TILBILIM



OV QUSHINING GALSTUGI

It bo'y-niga taqiladigan tasma qadimgi tilimizda *qaloda* deb atalgani haqida aytib o'tgan edik. Ov qushlarining bo'y-niga taqiladigan maxsus bo'yinbog' *qarg'i* deb atalishi haqida "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari" kitobining 3-jildida ma'lumot keltirilgan..

Shu kitobning 8-jildida jig'avul so'ziga shunday izoh berilgan: "bu so'zning asl ma'nosi ov qushining bo'y-niga boylanadigan bo'yinbog' bo'lib, folklorida "*shikor begi*" ma'nosida ham qo'llanadi" ("Jig'ovul va shig'ovul" maqolasiga qarang). Yana *dolbay* so'zi "*qush qo'nadigan qo'ndiq*" deb izohlangan. Men "Ovchi qush va dolbay" degan maqolamda "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoniga tayanib, dolboy so'zi "ovchi qushni qo'lga keltirish uchun unga ko'rsatiladigan go'sht" ma'nosini anglatishi haqida aytib o'tganman.

Ov qushi qo'ndiriladigan sim qo'ndiq tilimizda *chakas* degan so'z bilan ifodalangan. Bu so'z ertak va dostonlarimizda uchraydi:

Qora yo'rg'a bo'lsin barin mingani,
Yuzta chakas bersin qushlar qo'ngani.
(“Bo'tako'z”)

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

Oilada gap ko'p...

G'arb davlatlari va Rossiya ko'p muammolarning sababi oila institutining yo'qolib borayotgani ekanini tushunib yetgan ko'rinadi. Shaxsiy kuzatuvlarimda shunday xulosaga kelyapman..

Masalan, Rossiyaning ichki ishlar xodimi haqida ishlangan "Birinch bo'lim" serialining oxirgi qismlarida oila, farzand tarbiyasi haqida epizodlar ko'paytirilgan. Yaqinda "Net-fliks" tomonidan ishlangan "Balog'at davri" seriali ham aynan oilaviy qadriyatlarining muhimligini targ'ib qilmoqda. Ya'ni, oila instituti endi media orqali targ'ib qilinmoqda.

Fransiyada o'tkazilgan tadqiqotlar esa oilalardagi muammolarning 25 foizi ortiqcha ish vaqti bilan bog'liq nizolar tufayli paydo bo'layotganini aniqlagan. Bu – jiddiy signal!

Haqiqatan, oila insonni juda ko'p masalada tartibga, mas'uliyatga o'rgatadi. Oilasi yo'qlarni bir kuzating. Ularni tiyib turadigan hech narsa yo'q, topganini pala-partish hayotga sarflagan, ruhiy toliqish, turli kasalliklar..

Oila muhitidagi odamlar esa



dardlashadigan, suyanadigan, mehr ko'radigan odamlari borligini biladi va xotirjam bo'ladi. Aynan oilasida halovati borlar hayotdan zavq olib yashay oladilar. Oilasiz yoki oilasida muammo bo'la turib, o'zini maza qilib yashayotgandek ko'rsatadiganlar esa usti chiroyli lekin ichidan chirigan olma kabi dirlar. Tanimaydiganlar ularga havas qilgandek qarashadi, bilganlar

esa ayni toifaga mansub insonlarga achinish hissi bilan boqadi.

To'g'ri va maqbul yo'l shuki, oilaga ko'proq vaqt va mablag' sarflash kerak. Uni mustahkamlashdan to'xtamaslik lozim. Chunki u bizning bir umrlik manzilimiz. Qolgani esa shunchaki vaqtinchalik havaslardir..

Hamza JUMAYEV
Facebook

Jadid
adabiy, badiiy va o'qish va ijtimoiy haftalik gazeta

Muassislar:



O'ZBEKISTON
YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT
VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VA RIVOJLANTIRISH
JAMOAT FONDI



"SHAHIDLAR XOTIRASI"
JAMOAT FONDI

Bosh muharrir:
Iqbol Mirzo

Mas'ul kotib:
Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi..

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Adadi – 19739

Shundan:

Kirill yozuvida – 8 025

Lotin yozuvida – 11 714

Media kuzatuvchilar – 43 632

Buyurtma: G – 540.

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 223.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6



Manzilimiz:

Toshkent shahri,

Shayxontohur tumani,

Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20

Devonxona: (97) 745-03-69

jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17

Jadid_gazetasi@exat.uz

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:

Toshkent shahri,

Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00

Bosishga topshirildi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz